ISNN 3030-3907

2025/7
VOLUME 1

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2025/7 VOLUME 1

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:
Izzatov Diyor Hikmatillo o‘g‘li
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI*:*
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Renessans ta'lim universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	Qattiq maishiy chiqindilardan vodorodga boyitilgan sintez gaz olish imkoniyatini eksperimental tadqiq qilish *Abdug'aniyev Nurislom Nuritdin o'g'li*	9
2	Xanthoparmelia conspersa lishaynigining aminokislota tarkibini tadqiq etish *Jalolov Iqboljon Jamolovich* *Qoraboyeva Gulnozaxon Islom qizi*	21
3	Tuproqqa ishlov beruvchi ishchi organlarning yeyilish sabablari va yeyilish darajasini uning ish ko'rsatkichlariga ta'siri *Kosimova Maloxatxon Karimovna*	31
4	Transport system scenarios and their impacts on urban passengers *Mansurov Muxammadyoqub Kunduzovich*	37
5	Organic solvents in the synthesis of inorganic nanomaterials: the case of ethanol and ti(obu)$_4$ *Chorshanbiyev Abdimajit Anvar o'g'li* *Tursunov Firdavsi Hamzaevich*	44
6	Glitsirret kislotasining c3 holati bo'yicha efirlari sintezi va ularning biologik faolliklarini nazariy baholash *Hamroyev O.B* *Raxmonov B.D* *To'rayeva G.Yu* *Rahmatova M.J* *Esanov R.S.*	50
7	Avtomobil yo'llarini qurish asoslari *N.A. Maxammadjonov*	58
8	Modifikatsiyalangan adsorbentlar yordamida uglevodorodli kislotali gazlarni tozalash jarayonini o'rganish *F.Rayimberdiyev* *G'.Normatov*	67
9	Elektron tijorat xavfsizligi. *Voxidov Dilshod Alikulovich* *O'ktamova Shaxinabonu Asqar qizi* *Islomov Yigitali Navro'z o'g'li* *Karimova Diyora Baxrom qizi*	71
10	Analysis of the indicators of the formation of venture funds in uzbekistan regarding the development of the national economy *Qarajanova Gulnoza Tolliyevna*	78
11	Kombinatsiyalashgan energiya tejamkor sholi quritish qurilmasida haroratni rostlashni matlab/simulink muhitida matematik modellashtirish *Elyorbek Xasanovich Safarov* *Asadov Elbek Murodillo o'g'li*	96
12	Analysis of the biological composition of sunflower seeds and the efficiency of their drying methods *Yangiboyeva Rakhbaroy Mashrabboy qizi*	103
13	Design and deployment of a smart load monitoring system for energy optimization in small-scale infrastructures *Ikromova Mashhura Asqar qizi*	111
14	Sanoat oqova suvlarini tozalash bo'yicha sorbsion texnologiyalar *Kuchkarova Noila Xusnitdinovna* *Raxmatullayeva Nargiza Tulkunovna* *Sotvoldiyeva Nozima Xusan qizi*	118
15	Sabzining xorijiy nav va gibridlarini surxondaryo viloyatining janubiy mintaqasida sinash natijalari *Abdullaev Ilxom Eshkurbanovich*	125

ISSN 3030-3907

16	O‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning pedagogik mohiyati *Kushbakova Barno Batirkulovna*	131
17	Kislorodni aniqlashning optik usullari. *Bekanov Bobur Zafarovich* *Qodirov Nizom Daminovich*	139
18	Masofaviy ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash va samaradorligini baholash *Saidov U.Y.* *Hojiyev N.Yo.*	145
19	Suv resurslarini avtomatik boshqarish jarayonini matlab/simulink muhitida modellashtirish *Safarov Elyorbek Xasanovich* *Tillayeva Dilobar Abdugoffor qizi*	150
20	Kombinatsiyalashgan aylanuvchi barabanli quritkichning energiya tejamkorligini modellashtirish *Safarov Elyorbek Xasanovich*	158
21	Ikkinchi tartibli sirtlar modulini o‘qitish bo‘yicha dasturiy ta’lim vositasi ishlab chiqishning shakli va mazmuni *Qurbonov G‘ulomjon G‘afurovich* *Nurilloyeva Hilola Ismat qizi*	167
22	To‘qimachilik materiallaridagi nuqsonlarni raspberry pi 4 va sun’iy intellekt algoritmlari yordamida aniqlash *Qarshiyev.B.E* *Xolliyev.S.R*	176
23	Axborot texnologiyalari va virtual laboratoriyalarni avtotransport vositalarining diagnostikasi darslarida foydalanish *Xudaykulov Rustam Zakirovich* *Komilov Azamjon Lutfullayevich*	182
24	Йўловчи ташиш учун математик усуллар ёрдамида оптимал автобус турини танлаш *Комилов Азамжон Лутфиллаевич* *Худайкулов Рустам Закирович*	187
25	Oltingugurt va polimer kompozitsiyalarini stabilizator sifatida yo‘l qurilish bitumlariga qo‘llanish texnologiyasini ishlab chiqish *Raupov Bahodirjon Kenja o‘g‘li*	194
26	Avtomobillarda braun gazidan foydalanish *Nasirov Ilxam Zakirovich* *Raxmonov Xurshidbek Nurmuxammad o‘g‘li*	199
27	Zamonaviy logistika terminallarida texnologik jihozlarni takomillashtirish *Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich*	206
28	Tibbiy asbob-uskunalar texnik spetsifikatsiyalarining tuzilishi va tarkibini o‘rganish, ularni tayyorlashda atrof-muhit omillari. *O.K.Shavkatov*	211
29	Tibbiy buyumlarning muvofiqligini baholashda yangi yevropa ittifoqi qoidalari (mdr/ivdr) va ularning amaliyotga ta’siri *Ahmedova Sitora Asqar qizi*	217
30	Sug‘orish suvini magnit maydonida aktivlashtirish asosida issiqxonalarda o‘simlik yetishtirish samaradorligini oshirish *A.A. Igamberdiyev,* *B.J. Sultonov,* *B.J. Sultonov,* *S.E.Qurbonazarov,* *K.F.Abdirasulov*	224
31	Quyosh panellaridagi yarimo‘tkazgichlarga kirishmalar kiritish orqali panellardagi energiya samaradorligini oshirish *Sobirova Tursunoy Abdipatto qizi*	233

ISSN 3030-3907

32	Определение основы теории адаптивной идентификации для автоматизации многосвязных объектов. *Умид Садирдинович Холматов*	241
33	Payvandlash sexlarida payvandlangan detallarini tashishni avtomatlashtirish tizimini matlab/simulink muhitida modellashtirish *Safarov Elyorbek Xasanovich* *Xudoyberdiyev Doniyor Bekzod o'g'li*	250
34	Avtomobillarining ishlashi davomida chiqadigan zararli gazlar miqdorini aniqlash va kamaytirish *Zingirov Saydolim Jurayevich*	258
35	Разработка и оптимизация флотационной технологии обогащения руд кокпатасского месторождения *Бекпулатов Ж. М.*	266
36	Ko'mirlarni organik birikmalar bilan modifikasiyalash jarayonlarining og'ir metallar adsorbsiyasiga ta'sirini o'rganish *Boymatov Ismoiljon Mamatqulovich* *Aslanova Feruza Ilxomovna*	272
37	Паст кучланишли (0.4 кв) электр тармоқларида электр энергияси сифати ва қувват исрофлари *Қурбонов Нуриддин Нажимович*	277
38	Umumkasbiy fanlar yordamida texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish *Xudayqulov Rustam Zakirovich* *Eshquvvatov Ulug'bek Abdulla o'g'li*	286
39	Природные антиоксиданты в виде полифенолов: структура и изучение синтеза белка. *Олимов Сардор Мустафаевич*	292
40	Smb qurilmalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha to'rt xaftalik, yillik, oylik tezkor reja-jadvallar tuzish *Otaqulova Shaxnoza Burxon qizi*	301
41	Konchilik yo'nalishi talabalarida ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirish uchun leksik birliklar minimumi tanlash tamoyillari *Saydullayeva Xusnora Utkirovna*	308
42	Илмий-методик асослар: педагогик ёндашувлар ва сунъий интеллект интеграцияси *Э.Пўлатова*	314
43	Application of mnc in modelling of saw teeth cutting using deform-2d/3d *Madrakhimov Dilshod Usupaliyevich* *Mansurov Ilhomjon Islomjon o'g'li.*	327
44	Tomchilatib sug'orish usulini magisterial va yondosh shlanklarini dalasharoitiga joylashtirish usullari *Choriev Aliqul Jumaevich* *Xurramova Madina Sherali qizi*	334
45	Хроматографические методы определения кислорода *Норкулова Холида Шарофитдиновна* *Кодиров Низом Даминович*	340
46	Surxon voxasida ingichka tollali g'o'za ekinini yetishtirishda tomchilatib sug'orish usulini qo'llash orqali suv resurisni tejash *Choriyev Aliqul Jumayevich* *Xurramova Madina Sherali qizi*	346
47	The functional-semantic field of verb word formation. *Aslanova Ozoda Ibrokhimovna*	351
48	"Boburnoma" asari tarixiy manba sifatida *G.R.Ishankulova*	360
49	Оптоэлектронный сенсор на основе ик-светодиодов для анализа газов *О.Х. Кулдашов* *А.А. Валихонов* *А.А. Алиев*	366

ISSN 3030-3907

50	Paxtani yirik iflosliklardan tozalash texnologiyalarini takomillashtirish ustida qilingan ishlar tahlili *Imomnazarova Nurjaxon Toktaboyevna* *Muradov Rustam Muradovich*	374
51	Texnik diagnostika, avtotransportlarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash masalalarining holati bo‘yicha tahlili *Xudoyberdiyev Lochin Nekovich*	379
52	Пути повышения деятельности бизнес-инкубаторов через коммерциализация студенческих идей в системе образования *Нарзуллаев Шодиёр Эшпулатович*	386
53	Применение open journal systems (ojs) в организации научных публикаций *Бахронова Дилшода Мардоновна*	399
54	Designing entry-level medical vocabulary programs for first-year medical students *Nasiba Zaripbayeva* *Buranova Dilafruz Jamaldinovna*	406
55	Mutaxassislik fanlarini o’qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash *Madraximov F.N.* *Jumanova M.O.* *Zokirova M.S.*	411
56	Brayl yozuvini raqamli tasvirlar orqali aniqlash texnologiyalari *Majidova Gulhayo Abdirazzoq qizi*	416
57	Infraqizil qurutishdagi namlikning o‘zgarishi kinematikasi *Raxmatov G‘ulomjon Raxmonberdiyevich*	421
58	O‘zbekiston bozorlarida mahsulotlar sifatini nazorat qilish sohasidagi muammolar *Ahmedova Sitora Asqar qizi*	428

ISSN 3030-3907

QATTIQ MAISHIY CHIQINDILARDAN VODORODGA BOYITILGAN SINTEZ GAZ OLISH IMKONIYATINI EKSPERIMENTAL TADQIQ QILISH

Abdug‘aniyev Nurislom Nuritdin o‘g‘li
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: abduganiyev2020@mail.ru

Annotatsiya: Bugungi kunda jahonda kuzatilayotgan global isish bilan bog‘liq iqlim o‘zgarishi, energiya xavfsizligi va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish kabi muammolar qayta tiklanadigan energiya taraqqiyotiga turtki bo‘lmoqda. Qattiq maishiy chiqindilarni gazlashtirish natijasida vodorodga boyitilgan yuqori energetik qiymatga ega sintez gaz olish bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqot natijalariga ko‘ra, jarayon harorati 950 ºC bo‘lganda H_2 gazining miqdori maishiy chiqindi va yog‘och chiqindisida mos ravishda 44,2 % hamda 42,9 % ni tashkil etdi.

Kalit so‘zlar: biomassa, qattiq maishiy chiqindi, issiqxona gazlari, gazifikatsiya, sintez gaz, smola, gazifikator.

Аннотация: В настоящее время наблюдающиеся в мире глобальное потепление, связанное с изменением климата, энергетическая безопасность и необходимость снижения выбросов парниковых газов стимулируют развитие возобновляемых источников энергии. Согласно результатам экспериментальных исследований по получению синтез-газа с высоким энергетическим потенциалом, обогащённого водородом, путём газификации твёрдых бытовых отходов, при температуре процесса 950 °C содержание водорода в газе составило соответственно 44,2 % для бытовых отходов и 42,9 % для древесных отходов.

Ключевые слова: биомасса, твёрдые бытовые отходы, парниковые газы, газификация, синтез-газ, смола, газификатор.

Abstract: Currently, global warming associated with climate change, energy security, and the need to reduce greenhouse gas emissions are driving the development of renewable energy sources. According to the results of experimental studies on the production of high-energy hydrogen-enriched synthesis gas through the gasification of municipal solid waste, at a process temperature of 950 °C, the hydrogen content in the gas reached 44.2 % for municipal waste and 42.9 % for wood waste, respectively.

Keywords: biomass, municipal solid waste, greenhouse gases, gasification, synthesis gas, tar, gasifier.

Kirish

ISSN 3030-3907

Hozirda qayta tiklanadigan energiya iqlim o‘zgarishini yumshatishning muhim elementi sifatida tan olingan [1]. Neft, ko‘mir va tabiiy gaz kabi resurslarning kamayishi hamda qazib olinadigan yoqilg‘ilar narxining oshishi bilan bog‘liq holda qayta tiklanadigan energiya manbalari va bioenergiyadan keng miqyosda foydalanish haqiqatdan ham dunyoning ko‘plab mamlakatlari hamda mintaqalarida katta qiziqishni uyg‘otmoqda. Dunyoning ma’lum bir mintaqasida yoki mamlakatida alohida qayta tiklanadigan energiya manbalari turining o‘sish sur’ati geografik, iqlim hamda iqtisodiy sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi [2]. Dunyo bo‘ylab hukumatlar energiyaga bo‘lgan global talabni qondirish, qazib olinadigan yoqilg‘i iste’molini va CO_2 emissiyasini kamaytirish maqsadida biomassa, shamol, quyosh hamda gidroenergetika kabi qayta tiklanadigan resurslar va energiyadan foydalanishni rag‘batlantirmoqda [3,4]. Biomassa qayta tiklanadigan energiyaning eng keng tarqalgan shakli bo‘lib, uning global miqyosda tarqalishi tufayli o‘sish potentsialiga ega hisoblanadi. Elektr energiyasining nol uglerodli qayta tiklanadigan manbai sifatida tanilgan biomassa jami energiya iste’molining taxminan 14% va rivojlanayotgan mamlakatlarda energiya iste’molining 38% ni tashkil qiladi [5]. Energiya ishlab chiqarish uchun biomassa xom-ashyosidan foydalanish qazilma yoqilg‘iga qaramlikni kamaytirgan holda issiqxona gazlari chiqishini qisqartirishga va CO_2 ni kamaytirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlariga erishishga yordam beradi. Shuningdek, biomassa ekologik nuqtai nazardan qazilma yoqilg‘ilar o‘rnini bosuvchi hisoblanadi. Biomassadan energiya manbai sifatida foydalanish mamlakatning o‘sishiga, sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida iqtisodiy va bandlik imkoniyatlarini yaratishga ham hissa qo‘shishi mumkin.

Gazifikatsiya texnologiyasi xom-ashyo tarkibi va reaktor turiga bog‘liq holda 800–1200 ^oC haroratda sodir bo‘ladi [6]. Biroq ushbu jarayon natijasida olingan gazlarni (vodorod, sintez gaz, uglerod oksidi, metan) tozalash murakkab jarayon hisoblanib, ularni tashish yuqori sarf-xarajatlarni talab qiladi [7]. Shuningdek, gazifikatordan olingan gazning yuqori issiqlik qiymatiga egaligi uning boshqa biogaz qurilmalaridan olingan gazdan ustunligidir. Bugungi kungacha gaz olish usulini yaxshi tushunish va o‘rganish maqsadida ko‘pgina amaliy tajribalar, matematik modellashtirishlar hamda izlanishlar o‘tkazilgan [8, 9]. Yuqori molekulyar uglevodorodlarning kondensatsiyalashgan aralashmasidan iborat bo‘lgan saqich(smola) gazlashtirish jarayonida hosil bo‘lib, u gaz reaktorining zararlanishi, korroziyasi va bekilib qolishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan asosiy muammo hisoblanadi [6]. Ushbu muammoni hal etishda fizik [10], kimyoviy [11, 12] kabi bir qancha usullardan foydalanilmoqda. Shuningdek, saqich

ISSN 3030-3907

hosil bo‘lishini kamaytirish bilan birga vodorod chiqishini oshirish maqsadida so‘nggi vaqtlarda bug‘li gazlashtirish usuli keng qo‘llanilmoqda [13].

Shunga ko‘ra, mazkur tadqiqot ishi Toshkent viloyati hududidagi qattiq maishiy chiqindilardan gazifikatsiya texnologiyasini qo‘llagan holda vodorodga boyitilgan sintez gaz olishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Toshkent viloyati hududidan yig‘ib olingan qattiq maishiy chiqindilardan tadqiqotda xom-ashyo sifatida foydalanildi. Hududdagi chiqindilar morfologik tarkibi o‘rganilganda ularning asosiy qismini yog‘och chiqindilari tashkil etishi aniqlandi va shundan keyingi amaliy tadqiqotlar umumiy qattiq maishiy chiqindi hamda yog‘och chiqindilarida o‘tkazildi.

Ushbu tadqiqot ishida vodorodga boyitilgan sintez gaz olishning energetik imkoniyatlari eksperimental tadqiq qilishda foydalanilgan gazifikator haqida to‘liq ma’lumot Porada va boshqalar [14] tadqiqotlarida berilgan va uning umumiy ko‘rinishi 1-rasmda tasvirlangan.



1-rasm. Gaz olish jarayonini o‘rganish uchun laboratoriya qurilmasi[15]


Uskuna uchta asosiy tizimdan, ya’ni isitish tizimiga ega yuqori bosimli reaktor, gazlashtirish reaktoriga yonilg‘i (bug‘) etkazib berish tizimi va hosil bo‘lgan gazni tahlil qilish hamda yig‘ish tizimidan iborat. Reaktor ichida panjara bilan jihozlangan diametri 20 mm bo‘lgan kvars retorta mavjud. Harorat 850, 900 va 950 $^{\circ}$C; bosim: 10 bar; bug‘ sarfi: 0,3 g/min; argon oqimi: 2 dm^3/min kabi izotermik o‘lchov parametrlari barqarorlashtirgandan so‘ng, 1 g yoqilg‘i namunasi panjaraga kirgizildi va hosil bo‘lgan gaz tahlil qilindi. Buning uchun maxsus ishlab chiqilgan porshenli ta’minlovchi ishlatiladi. Porshen harakati ta’minlovchi kameraga gaz etkazib berish trubkasidagi kirish klapanining ochilishi natijasida sodir bo‘ladi. Namuna solingan retorta elektr pechi yordamida qizdiriladi. Uchlari qopqoqlar bilan yopilgan va gazlashtiruvchi vositani etkazib berish hamda hosil

ISSN 3030-3907

bo‘lgan gazni olib tashlash uchun mo‘ljallangan tarmoq quvurlari bilan jihozlangan kvarts reaktorining bosimli korpusi issiqqa chidamli po‘lat qobiqdan yasalgan. Qobiq ichiga o‘rnatilgan mineral vata (momiq paxta) pechning izolyatsiyasini hosil qiladi. Biomassa namunasining harorati bir vaqtning o‘zida impulslarni kontroller-dasturchiga etkazib berishga xizmat qiladigan va namunaning talab etilgan haroratini saqlaydigan K tipidagi termopara bilan o‘lchanadi. Olingan gaz suv va smola kondensatining ajralishi sodir bo‘ladigan kondensatordan o‘tadi. Shundan so‘ng ular yaxshilab quritiladi va filtrda tozalanadi. Dekompressiyadan so‘ng, infraqizil nurlanish yutilishiga asoslangan analizator yordamida olingan gazda karbonat angidrid, uglerod monoksid va metan miqdori doimiy ravishda aniqlanadi. Bundan tashqari, issiqlik o‘tkazuvchanlik detektori (TCD) bilan jihozlangan gaz xromatografi yordamida gaz tarkibidagi vodorod miqdorini aniqlash uchun gaz namunalari olindi.


NATIJA VA MUHOKAMA

O‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishi natijasida respublikada birinchi bor biomassadan gazifikatsiya texnologiyasini qo‘llagan holda vodorodga boyitilgan sintez gaz olishga erishildi. Quyidagi 2- va 3-rasmlarda qattiq maishiy chiqindi va yog‘och chiqindilari gazlashtirish jarayonining borishi va 850, 900 va 950 °C da H_2, CO, CO_2 hamda CH_4 hosil bo‘lish tezligining o‘zgarishi ko‘rsatilgan.




a)

ISSN 3030-3907



b)



c)

1) CO 2) CO_2 3) CH_4 4) H_2

a) 850 °C; b) 900 °C c) 950 °C


2-rasm. Yog‘och chiqindilarini gazlashtirishda gazsimon mahsulotlar hosil bo‘lish tezligining turli haroratlarda o‘zgarishi[15]

Barcha jarayonlarda ikkita bosqich aniq ajralib turadi: (1) piroliz – jarayonning boshida cho‘qqi sifatida kuzatiladigan uchuvchi moddalarning tez ajralib chiqishi; (2) gazlashtirish – suv bug‘i bilan reaksiya orqali ko‘mir hosil bo‘lishining sekinroq va ancha uzoq bosqichi. Natijada sintez gazi (H_2 + CO) hosil bo‘ldi. Hosil bo‘lgan gaz yuqori harorat zonasida bug‘ gazining siljishi reaksiyasi kabi ikkilamchi reaksiyalar sodir bo‘lishi uchun etarlicha vaqt saqlanib qoldi hamda CO_2 hosil bo‘ldi; CH_4 esa faqat piroliz bosqichida ajralib chiqadi.


Maishiy chiqindi va yog‘och chiqindilari gazlashtirishning har ikki bosqichida ham vodorod eng yuqori hosil bo‘lish ko‘rsatkichiga ega bo‘ldi, undan keyin CO hamda CO_2 (qiyosiy hosil bo‘lish tezligi). Piroliz jarayonida metan

ISSN 3030-3907

ajralib chiqish tezligining yuqoriligi bilan birga hosil bo‘lish vaqtining qisqaligi ajralib chiqqan gazda CH_4 miqdorining sezilarli bo‘lmasligiga olib keldi.




a)



b)

ISSN 3030-3907



c)

1) CO 2) CO_2 3) CH_4 4) H_2

a) 850 °C; b) 900 °C c) 950 °C

3-rasm. Maishiy chiqindini gazlashtirishda gazsimon mahsulotlar hosil bo‘lish tezligining o‘zgarishi[15]


Haroratning oshishi jarayon vaqtini qisqartirgan holda asosiy komponent bo‘lgan sintez gazi(vodorod)ning hosil bo‘lish tezligini oshishiga olib keldi. Biroq o‘ziga xos egri chiziqlarning xususiyatlari har bir holatda o‘zgarishsiz qoldi, ya’ni ikkita asosiy bosqich sodir bo‘ldi (faqat piroliz vaqtida ajralib chiqqan CH_4 dan tashqari).

Gaz olish jarayoniga ikkilamchi gidrokrekingni kuchaytirish imkoniga ega va reaksiyalarni uglevodorodlarning (CnH_2n) konversiyasiga o‘tkazish xususiyatiga ega yuqori harorat sabab bo‘ladi. Ushbu fakt yuqori haroratda sodir bo‘ladigan reforming reaksiyalarining hissasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ular 800 °C dan yuqori haroratlarda ustun bo‘ladi. Gazning yakuniy tarkibi smolaning sintez gaziga aylanishi bilan bog‘liq holda sintez gazi chiqishining oshishi tufayli yuzaga keladigan umumiy reaktsiyalarning funksiyasi hisoblanadi.


Gazsimon mahsulotlarning chiqish miqdorini hisoblash gazlashtirish o‘lchovlari paytida olingan o‘rganilayotgan gazlarning hosil bo‘lish reaksiyalarining kinetik egri chiziqlari yordamida amalga oshirildi. Quruq va kulsiz holatda 1 g maishiy chiqindi hamda yog‘och chiqindilaridan olingan gazsimon mahsulotlarning umumiy qiymatlari va ularning ulushlari mos ravishda 4- hamda 5-rasmlarda ko‘rsatilgan. Berilgan ma’lumotlarni tahlil qilish bizga haroratning oshishi bilan ko‘p hollarda olinadigan sintez gazi (vodorod va uglerod oksidi) miqdorining oshishi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Biroq 950 °C da

ISSN 3030-3907

maishiy chiqindi gazlashtirilganda olingan gaz tarkibida karbonat angidrid uglerod oksidiga nisbatan bir oz yuqoriligi vodorodga boy sintez gaz (908,2 miq/sm^3) sifatiga ta’sir qilmadi.



a)




b)


a) maishiy chiqindi; b) yog‘och

4-rasm. O‘rganilayotgan chiqindilarni 850, 900 va 950 °C da gazlashtirish natijasida H_2 , CO, CH_4 va CO_2 larning chiqish miqdorlarini taqqoslash[15]

ISSN 3030-3907



a)



b)

a) maishiy chiqindi; b) yog‘och

5-rasm. O‘rganilayotgan chiqindilarni 850, 900 va 950 °C da gazlashtirish natijasida olingan gaz komponentlarining ulushi[15]

Boshqa tadqiqotlar [16, 17] da ham gazlashtirish jarayonida harorat qanchalik yuqori bo‘lsa, chiqayotgan gaz tarkibida vodorod miqdori ham shunchalik yuqori bo‘lishini ta’kidlaydi. Ya’ni haroratning oshishi endotermik vodorod ishlab chiqarish reaktsiyalari uchun etarli energiyani ta’minlaydi va shu sababli chiqayotgan gaz tarkibidagi vodorod miqdori oshadi. Bug‘ gaz reaksiyasi yuqori haroratlarda Buduar reaksiyasiga qaraganda ko‘proq foyda keltiradi. Bug‘ gaz reaksiyasining yuqori haroratiga qo‘shimcha ravishda ishlab chiqarilgan gaz

ISSN 3030-3907

tarkibidagi vodorod miqdorining oshishiga olib keladi. Shuningdek, yuqori harorat metanning CO va H_2 ga bug‘li konversiyasiga yordam beradi [18].

Gazlashtirish haroratining oshishi bilan gaz hosil bo‘lishining ko‘payishi hisobiga smola va polukoksning chiqish miqdorlari kamayadi. Yuqori haroratlarda gaz miqdorining oshishini degassatsiyaning dastlabki bosqichida gazlarning ko‘p chiqishi, shuningdek, ko‘mir va smolalar uchraydigan ikkilamchi reaksiyalar (ko‘mirni gazlashtirish va smolani kreking/reforminglash) bilan izohlash mumkin [19]. Olinadigan gazning tarkibiga harorat ham ta’sir qiladi. Shunga ko‘ra, harorat oshishi bilan H_2 konsentratsiyasi ortadi, CO va engil uglevodorodlar konsentratsiyasi esa kamayadi. Shunga qaramay, termodinamik modellar H_2 chiqish miqdorining asta-sekin kamayishi juda yuqori reaksiya haroratida sodir bo‘lishini ko‘rsatdi [20, 21].

XULOSA

Toshkent viloyati hududidan olingan qattiq maishiy chiqindilardan vodorodga boyitilgan sintez gaz olish potensialini aniqlash bo‘yicha 850, 900 va 950 °C haroratlarda o‘tkazilgan tajriba natijalariga ko‘ra, asosiy H_2, CO, CH_4, CO_2 kabi gazlar ajralib chiqdi va bunda eng ko‘p miqdordagi(44,2 % (maishiy chiqindi) va 42,9 %(yog‘och)) H_2 gazi 950 ^oC da hosil bo‘ldi. Binobarin gazlashtirish haroratini ma’lum darajada nazorat qilish juda muhimdir. Shunday qilib, umumiy tahlilga muvofiq harorat sintez gaz (H_2 + CO) nisbatining va konsentratsiyasining oshishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi degan xulosaga kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Stancin H., Mikulci H., Wang X., Duic N. A Review on Alternative Fuels in Future Energy System // Renew. Sustain. Energy Rev., 128 (2020), 109927.
2. Stolarski M.J., Warminski K., Krzyzaniak M., Olba–Ziety E., Akincza M. Bioenergy Technologies and Biomass Potential Vary in Northern European Countries // Renew. Sustain. Energy Rev., 133 (2020), 110238.
3. Kaloudas D., Pavlova N., Penchovsky R. Lignocellulose, Algal Biomass, Biofuels and Biohydrogen: A Review // Environ. Chem. Lett. 19 (2021), pp 2809–2824.
4. Igwebuike C.M., Awad S., Andrès Y. Renewable Energy Potential: Second-Generation Biomass as Feedstock for Bioethanol Production // Molecules 29 (2024), 1619.
5. Siwal S.S., Zhang Q., Devi N., Saini A.K., Saini V., Pareek B., Gaidukovs S., Thakur V.K. Recovery Processes of Sustainable Energy Using Different Biomass and Wastes // TIDEE TERI Inf. Dig. Energy Environ. 21 (2022), pp 162–163.

ISSN 3030-3907

6. Matsakas L., Gao Q., Rova U., Jansson S., Christakopoulos P. Green conversion of municipal solid wastes into fuels and chemicals // Electronic Journal of Biotechnology, 26 (2017), pp 69-83.
7. Tursunov O., Dobrowolski J., Klima K., Tylko G., Kordon B., Ryczkowski J., Czerski G. The Influence of Laser Biotechnology on Energetic Value and Chemical Parameters of *Rose Multiflora* Biomass and Role of Catalysts for bio-energy production from Biomass: Case Study in Krakow-Poland// World Journal of Environmental Engineering, 3 (2015), pp. 58-66.
8. Budhathoki R. Three zone modeling of Downdraft biomass Gasification: Equilibrium and finite Kinetic Approach, Master's Thesis (2013), pp: 1-96.
9. Basu P. Biomass Gasification: Pyrolysis and Torrefaction Practical Design and Theory, 2nd Edition, Elsevier, Chapter 7 (2013), pp. 199-313.
10. Vivanpatarakij S., Assabumrungrat S. Thermodynamic analysis of combined unit ofbiomass gasifier and tar steam reformer for hydrogen production and tar removal // Int. J. Hydrogen Energy 38(2013), pp. 3930–3936.
11. Campoy M., Gomez-Barea A., Ollero P., Nilsson S. Gasification of wastes in a pilot fluidizedbed gasifier // Fuel Process Technol 121(2014), pp.63–69.
12. Li J., Liao S., Dan W., Jia K., Zhou X. Experimental study on catalytic steam gasificationof municipal solidwaste for bioenergy production in a combined fixed bedreactor // Biomass Bioenergy 46(2012), pp. 174–180.
13. He M., Hu Z., Li J., Xiao B., Guo X., Luo S. et al. Hydrogen-rich gas from catalyticsteam gasification of municipal solid waste (MSW): Influence of catalyst and temperatureon yield and product composition // Int J Hydrogen Energy 34(2009), pp. 195–203.
14. Porada S., Czerski G., Dziok T., Grzywacz P. and Makowska D., Thermovolumetric investigations of steam gasification of coals and their chars// E3S Web of Conferences, 14 (2017), pp. 1–9.
15. Tursunov O.,· Śpiewak K., Abduganiev N., Yang Y., Kustov A., Karimov I., Thermogravimetric and thermovolumetric study of municipal solid waste (MSW) and wood biomass for hydrogen-rich gas production: a case study of Tashkent region// Environmental Science and Pollution Research, 2023, 1-13.
16. Parthasarathy P., Narayanan K., Hydrogen production from steam gasification of biomass: Influence of process parameters on hydrogen yield – A review, Renewable Energy 66 (2014) 570-579.
17. Liu Zh., Jun K., Roh H., Park S., Hydrogen production for fuel cells through methane reforming at low temperatures, J. Power Sources 111 (2002) 283-287.

ISSN 3030-3907

18. LeValley T., Richard A., Fan M., The progress in water gas shift and steam reforming hydrogen production technologies – A review, Int. J. Hydrogen Energy 39(30) (2014) 16983-17000.
19. Bates R., Ghoniem A., Jablonski W., Carpenter D., Altantzis Ch., Garg A., Barton J., Chen R., Field R., Steam-air blown bubbling fluidized bed biomass gasification (BFBBG): Multi-scale models and experimental validation, Particle Technology and Fluidization 63(5) (2017) 1543-1565.
20. Bach Q., Gye H., Song D., Lee C., High quality product gas from biomass steam gasification combined with torrefaction and carbon dioxide capture processes, Int. J. Hydrogen Energy 44 (2019) 14387-14394.
21. Tursunov O., Integrated application of laser biotechnology for extensive production of biomass and application of thermal technologies for production bioenergy, Doktorlik dissertatsiyasi, AGH University of Science and Technology, Krakow, Poland, 2016, pp 228.

ISSN 3030-3907

XANTHOPARMELIA CONSPERSA LISHAYNIGINING AMINOKISLOTA TARKIBINI TADQIQ ETISH

Jalolov Iqboljon Jamolovich
Farg‘ona davlat universiteti, kimyo fanlari doktori, professor
E-mail: i_jalolov1974@mail.ru
Tel: +998911077138
Qoraboyeva Gulnozaxon Islom qizi
Farg‘ona davlat universiteti Tovarlar kimyosi ixtisosligi Tayanch doktoranti
E-mail gulnozaqoraboyeva309@gmail.com
Tel: +998501112558

Annotatsiya. Inson organizmi uchun aminokislotalar muhim rol o‘ynaydi, chunki ular oqsillarni hosil qilishda, metabolizm jarayonlarida va organizmning turli fiziologik funksiyalarini bajarishda ishtirok etadi. Shu sababdan, tabiiy manbaalardan aminokislotalar tarkibini o‘rganish yildan yilga ahamiyat kasb etmoqda. O‘simliklar va lishayniklar tarkibidagi aminokislotalar, ayniqsa, ularning sog‘liq uchun foydali ta‘siri tufayli, ozuqabop qo‘shimchalar sifatida keng qo‘llaniladi. Tadqiqotimizda Respublikamiz hududida o‘suvchi *Xanthoparmelia conspersa* lishaynigining aminokislotalar tarkibi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX) metodi yordamida o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, *X. conspersa*, lishaynigi alanin, leysin, glutamin kislotasi, asparagin va serin kabi aminokislotalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu aminokislotalar organizm uchun zarur bo‘lib, ularning yallig‘lanishga qarshi, immunitetni kuchaytiruvchi va energiya ishlab chiqarishdagi rolini hisobga olgan holda, ushbu lishaynik sog‘liqni saqlash sohasida qo‘llanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Aminokislotalar, oqsillar, metabolizm, fiziologik funksiyalar, tabiiy manbaalar, o‘simliklar, lishayniklar, ozuqaviy qo‘shimchalar, *X. conspersa*, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi.

Аннотация. Аминокислоты играют важную роль в организме человека, поскольку они участвуют в образовании белков, обменных процессах и различных физиологических функциях организма. По этой причине изучение состава аминокислот из природных источников становится все более важным. Аминокислоты, содержащиеся в растениях и лишайниках, широко используются в качестве пищевых добавок, особенно из-за их полезного воздействия на здоровье. В нашем исследовании аминокислотный состав лишайника *Xanthoparmelia conspersa*, произрастающего на территории нашей республики, изучался методом высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ). Согласно результатам, лишайник *X. conspersa* содержит такие аминокислоты, как аланин, лейцин, глутаминовая кислота,

ISSN 3030-3907

аспарагин и серин. Эти аминокислоты необходимы организму, а учитывая их противовоспалительные, иммуностимулирующие и энергетические свойства, этот лишайник может найти применение в здравоохранении.

Ключевые слова: Аминокислоты, белки, метаболизм, физиологические функции, природные источники, растения, лишайники, пищевые добавки, X.conspersa, высокоэффективная жидкостная хроматография.

Abstract. Amino acids play an important role in the human body, as they participate in the formation of proteins, metabolic processes and various physiological functions of the body. For this reason, the study of the composition of amino acids from natural sources is gaining importance from ear to ear. Amino acids in plants and lichens are widely used as dietary supplements, especially due to their beneficial effects on health. In our study, the amino acid composition of the lichen *Xanthoparmelia conspersa*, which grows in our Republic, was studied using the high-performance liquid chromatography (HPLC) method. According to the results, the lichen *X. conspersa* contains amino acids such as alanine, leucine, glutamic acid, asparagine, and serine. These amino acids are essential for the body, and given their anti-inflammatory, immune-enhancing, and energy-producing roles, this lichen can be used in healthcare.

Key words: Amino acids, proteins, metabolism, physiological functions, natural sources, plants, lichens, nutritional supplements, *X. conspersa,* high-performance liquid chromatography.

Kirish

Aminokislotalar biologik tizimlarning asosiy qurilish bloklari bo‘lib, ularning tarkibi va ta’siri organizmdagi ko‘plab fiziologik jarayonlarni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunga kelib, aminokislotalar tarkibi va uning organizmdagi biologik faolligi ko‘plab tadqiqotlarning mavzusiga aylangan. Boshqa bir qator tabiiy manbalardan, xususan, lishayniklardan olinadigan aminokislotalar tarkibi va ularning biologik faolligi bilan bog‘liq tadqiqotlar hozirda juda muhim hisoblanadi. O‘zbekiston hududida o‘suvchi lishayniklarning aminokislotalar tarkibi va ularning biologik ta’siri hali to‘liq o‘rganilmagan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, atrof muhit sharoitlari, shu jumladan iqlim o‘zgarishlari va tuproq ekosistemasi, lishayniklarning metabolik faoliyatini shakllantirib, ular tarkibidagi aminokislotalarning miqdoriy va sifat jihatdan farqlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu tadqiqotda, O‘zbekiston hududida o‘suvchi *X. conspersa* turining aminokislotalar tarkibini o‘rganishni maqsad qilib oldik.

ADABIYOTLAR TAHLILI

ISSN 3030-3907

Bir necha turdagi zamburug‘lar tolalari orasida suvo‘tlari yoki siyanobakteriyalar joylashib birgalikda simbioz holatda yashashi mumkin. Shuningdek, zamburug‘ bilan birgalikda bakteriyalar gibrid koloniya hosil qiladi. Bunday murakkab hamkorlikda yashovchi organizm **lishayniklar** deb ataladi [1][2]. Lishayniklar tarkibidagi bu mikroorganizmlar tashqi qatlam — “**korteks**” yoki “teri” ichida joylashgan bo‘lib, ular o‘zaro foydali **mutualistik** munosabatda yashaydi [3][4][5][6][7]. Aynan lishayniklarga oid tadqiqotlar tufayli biologiya fanida ilk bor **“simbioz” (Symbiotismus)** atamasi ilmiy muomalaga kirib kelgan [8], ya’ni lishaynik organizmida bu a’zolar o‘zaro hamkorlikda hayot kechiradi.

Bugungi kunga kelib, lishayniklar ekologik tizimlarda oziqa moddalarining aylanishida muhim rol o‘ynashi, shuningdek, ko‘plab yuqori trofik darajadagi hayvonlar uchun oziqa manbai bo‘lishi bilan tan olingan. Masalan, **shimol bug‘usi**, **gastropodlar** (qorinoyoqlilar), **nematodalar** lishayniklar bilan oziqlanadi [9][10][11][12].

Lichenlar ularni tashkil etuvchi alohida organizmlarning xossalaridan butunlay farq qiladi. Ular rang-barang, turli o‘lcham va shakllarda bo‘lib, tashqi ko‘rinishidan o‘simliklarga o‘xshashi mumkin, biroq o‘simlik emas. Ularning ayrimlari **mayda, bargsiz novdasimon** shaklda bo‘ladi (**frutikoz**); ba’zilari esa **yassi, bargsimon** tuzilishga ega (**folioz**). Shuningdek, ular **yuzalarga qalin, yopishqoq qatlam** holida o‘sib, go‘yoki sirtga surtilgan bo‘yoqni eslatadi (**krustoz**) [13], ba’zida **kukunsimon** ko‘rinishga ega bo‘ladi (**leproz**) yoki boshqa xilma-xil o‘sish shakllarida uchrashi mumkin [14].

Aminokislotalar tabiiy manbalarda keng tarqalgan va biologik jihatdan faol birikmalar hisoblanadi. Ularning tarkibi va biologik faolligi ko‘plab o‘simliklar, o‘tlardan, lishayniklardan va boshqa tabiiy resurslardan o‘rganilgan. Lishayniklar o‘zining boy kimyoviy tarkibi bilan ajralib turadi va ularning aminokislotalar, fenol birikmalar, flavonoidlar, vitaminlar kabi komponentlarining ta’siri turli biokimyoviy jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi.

Bir qator tadqiqotlar, lishayniklarning aminokislotalar tarkibini va ularning biologik faolligini o‘rganishga qaratilgan. Masalan, Gorelova (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, lishayniklarning turli turlarida aminokislotalarning miqdoriy va sifat jihatidan farqlanishi ta’kidlangan. Ular o‘simliklarning iqlim sharoitiga va o‘sish joyiga bog‘liq ravishda, turli xil metabolik jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadi [15]. Shuningdek, Zhuravleva (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, lishayniklarning amino-kislotalar tarkibining ko‘pgina farmakologik va terapevtik xususiyatlarga ega ekanligi, shu jumladan antioksidantlik va antiinflamator ta’sirlar ko‘rsatishi haqida ma’lumot berilgan [16].

ISSN 3030-3907

Smith va boshqalar (2019) o‘z tadqiqotlarida lishayniklardan olinadigan aminokislotalar va flavonoidlar tarkibining organizmga ta’sirini o‘rgangan [17]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aminokislotalar tarkibi o‘simlikning kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Lishayniklardan olingan aminokislotalar, shuningdek, ular o‘sgan muhit sharoitlariga bog‘liq ravishda, organizmda antioksidantlik faollikni oshiradi va salomatlikka foydali ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston hududida o‘suvchi *X. conspersa* turining aminokislotalar tarkibi va biologik faolligi bo‘yicha aniq tadqiqotlar cheklangan. Shuning uchun, ushbu tadqiqotda bu turni o‘rganish, uning aminokislotalar tarkibini va antioksidantlik faolligini tahlil qilish maqsad qilib olingan. Bu ilmiy ish, lishayniklarning kimyoviy tarkibiga bo‘lgan yangi qarashlarni kiritadi va ularni potensial tabiiy dori vositalari sifatida foydalanish imkoniyatlarini o‘rganishga yordam beradi.

METODOLOGIYA

O‘zbekistonning Namangan viloyatining tog‘li va tog‘ oldi mintaqasida o‘sadigan *X. conspersa* lishaynigi terildi va uning erkin aminokislotalari izolyatsiya qilindi (1-rasm).



1-rasm. X. conspersa lishaynigi.

Namunaning suvli ekstraktidan oqsillar va peptidlarni cho‘ktirish sentrafuga stakanlarida amalga oshirildi. Shu maqsadda 1 ml sinov namunasiga 1 ml (aniq hajm) 20% TCA qo‘shildi. 10 daqiqa kutildi. So‘ngra cho‘kma 15 daqiqa davomida 8000 aylanish tezligida santrafugalash orqali ajratildi. 0,1 ml supernatant ajratilgandan so‘ng, u liyofilizatsiya qilindi. Gidrolizat bug‘landi, quruq qoldiq trietilamin-asetonitril-suv (1:7:1) aralashmasida eritildi va quritildi. Kislotani neytrallash uchun bu jarayon ikki marta takrorlandi. Aminokislotalarning


ISSN 3030-3907

feniltiokarbamil hosilalari (PTC) Stiven A., Koen Daviel usuli bo‘yicha feniltioizosiyanat bilan reaksiyaga kirishib olingan.

Aminokislota hosilalarini aniqlash HPLC yordamida amalga oshirildi. HPLC shartlari: DAD detektorli Agilent Technologies 1200 xromatograf, 75x4,6 mm Discovery HS C18 ustuni. A eritmasi: 0,14 M CH3COONa + 0,05% TEA pH 6,4, B: CH3CN. Oqim tezligi 1,2 ml/min, yutilish 269 nm. Gradient %B/min: 1-6%/0-2,5min; 6-30%/2,51-40min; 30-60%/40,1-45 min; 60-60%/45,1-50 min; 60-0%/50,1-55 min.

NATIJA VA MUHOKAMA

X. conspersa lishaynik namunasi Namangan viloyati tog‘ oldi hududidan yig‘ildi va HPLC yordamida aminokislota tarkibi o‘rganildi (2-rasm).



2-rasm. X. conspersa lishaynigi aminokislota tarkibi xromatogrammasi

Tekshiruv natijasida ushbu lishaynik tarkibida asparagin kislota, glyutamin kislota, serin, glitsin, asparagine, glyutamin, sistein treonin, argenin, alanin, prolin, tirozin, valin va boshqa bir qancha erkin aminokislotalar borligi aniqlandi.

Lishaynikdan ajratib olingan aminokislotalarni almashinadigan va almashinmaydigan aminokislotalarga bo‘lib o‘rganib chiqish yanada maqsadga muvofiq bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval.

X. conspersa lishaynigining almashinmaydigan aminokislota tarkibi

T/r	**Almashinmaydigan aminokislotalar nomi**	**Konsentratsiya mg/gr**
1	Trionin	2.196807
2	Valin	1.563697
3	Metionin	0.48692
4	Izoleytsin	0.744539

ISSN 3030-3907


5	Leytsin	1.831135
6	Triptofan	0.591076
7	Fenilalanin	0.410396
8	Lizin	0.666333

1-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlardan *X. conspersa* lishaynigi tarkibida almashinmaydigan aminokislotalardan treoninning miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan yuqoriroq (1 gramm o‘simlik tarkibida 2.196807mg) ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi o‘rinda *X. conspersa* tarkibida valin va leytsin almashinmaydigan aminokislotalarining miqdori lishaynik tarkibidagi boshqa almashinmaydigan aminokislotalarga nisbatan yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin (1 grammida mos ravishda 1.563697mg va 1.831135mg).

Tadqiqotlar shu ma’lum bo‘ladiki, *X. conspersa* lishaynigi tarkibida almashinmaydigan aminokislotalar, jumladan, triptofan va fenilalanin kabi moddalarga boy bo‘lishi, uning asab tizimini va immun tizimini mustahkamlashda samarali bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, bu lishaynik aminokislotalar tarkibi tufayli kosmetologiya sohasida ham o‘z ahamiyatiga ega bo‘lishi mumkin. Ularning tarkibidagi ba'zi aminokislotalar teri hujayralarining yangilanishini qo‘llab-quvvatlashi, shuningdek, terini himoya qilish va yoshartirishda foydali bo‘lishi mumkin. Bu esa *X. conspersa* lishaynigining kosmetologiyada ham qo‘llanishini mumkin ekanligini ko‘rsatadi.

Jadvaldagi ma’lumotlarni diagramma holatida ko‘rilsa aminokislota miqdori yaqqol namoyon bo‘ladi (1-diagramma).



ISSN 3030-3907

1-diagramma. X. conspersa lishaynigining almashinmaydigan aminokislota tarkibi

Lishaynik tarkibida shuningdek sezilarli miqdorda almashinadigan aminokislotalar aniqlandi (2-jadval).

2-jadval.


X. conspersa lishaynigining almashinadigan aminokislota tarkibi

T/r	**Almashinadigan aminokislotalar nomi**	**Konsentratsiya mg/gr**
1	Asparagin kislota	0.142364
2	Glutamin kislota	1.660151
3	Serin	0.833227
4	Glitsin	0.86054
5	Asparagin	1.732326
6	Glutamin	2.529548
7	Sistein	0.561749
8	Gistidin	4.534077
9	Argenin	4.290849
10	Alanin	0.347691
11	Prolin	4.696381
12	Tirozin	0.889737

2-jadvalda ko‘rinib turibdiki, *X. conspersa* lishaynigi tarkibida almashinadigan aminokislotalardan gistidin, arginine, prolin miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan ancha yuqori (1 gramm o‘simlik tarkibida mos ravishda 4.534077, 4.290849 va 4.696381 mg) ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi o‘rinda *X. conspersa* tarkibida glutamin kislota (1.660151 mg) va asparagin (1.732326 mg) almashinadigan aminokislotalarining miqdori lishaynik tarkibidagi boshqa almashinmaydigan aminokislotalarga nisbatan yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin.

Jadvaldagi ma’lumotlarni diagramma holatida ko‘rilsa lishaynik tarkibidagi almashinuvchi aminokislotalar miqdori yaqqol namoyon bo‘ladi (2-diagramma).

ISSN 3030-3907



2-diagramma. *X. conspersa* lishaynigining almashinadigan aminokislota tarkibi

Almashinadigan aminokislotalar X. conspersa lishayni tarkibida anchagina miqdorda uchraydi. Ular organizmda kechadigan turli fiziologik jarayonlar, xususan moddalar almashinuvi (metabolizm) **va** energiyaning hosil bo‘lishi kabi muhim funksiyalarning me’yorida kechishiga yordam beradi.

Umumiy miqdorda *X. conspersa* lishaynigidan 31.56954mg/g miqdorda aminokislotalar ajratib olindi.

XULOSA

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, *X. conspersa* lishaynigi erkin aminokislotalar tarkibi jihatidan xilma-xil. Ushbu lishaynikning aminokislotalar tarkibini o‘rganish uning biologik faolligini va potentsial tibbiy qo‘llanilish sohalarini aniqlashga yordam beradi. Erkin aminokislotalar, ayniqsa, organizmning muhim funksiyalarini qo‘llab-quvvatlashda va metabolik jarayonlarda muhim ahamiyatga ega.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, X. conspersa lishayni tarkibida triptofan va fenilalanin kabi almashinmaydigan aminokislotalar yuqori darajada mavjud. Ushbu moddalarning mavjudligi lishaynni asab tizimi **hamda** immun tizimini mustahkamlovchi foydali biologik manba sifatida qo‘llash imkoniyatini taqdim etadi.

X. conspersa lishayni tarkibida almashinadigan aminokislotalarning ham ko‘p miqdorda mavjud bo‘lib, ular organizmdagi bir qator fiziologik jarayonlar, shu jumladan, metabolizm va energiya ishlab chiqarishni tartibga solishda muhim

ISSN 3030-3907

rol o‘ynaydi. Erkin aminokislotalarning yuqori miqdori va xilma-xilligi ushbu lishaynikning biokimyoviy faolligini oshiradi, bu esa ularni farmatsevtika sanoatida qo‘llanilishi uchun yangi xom-ashyo manbai topilgaligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqotlar kelajakda ushbu lishaynikning erkin aminokislotalar tarkibini yanada chuqurroq o‘rganishni va ularning tibbiyot va kosmetologiya sohalaridagi potentsialini yanada kengaytirishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Grube, Martin; Cardinale, Massimiliano; de Castro, João Vieira; Müller, Henry; Berg, Gabriele (1 September 2009). "Species-specific structural and functional diversity of bacterial communities in lichen symbioses". The ISME Journal. 3 (9): 1105–1115. Bibcode:2009ISMEJ...3.1105G. doi:10.1038/ismej.2009.63. ISSN 1751-7362. PMID 19554038.

2. Grube, Martin; Berg, Gabriele (August 2009). "Microbial consortia of bacteria and fungi with focus on the lichen symbiosis". Fungal Biology Reviews. 23 (3): 72–85. Bibcode:2009FunBR..23...72G. doi:10.1016/j.fbr.2009.10.001.

3. Spribille, Toby; Tuovinen, Veera; Resl, Philipp; Vanderpool, Dan; Wolinski, Heimo; Aime, M. Catherine; Schneider, Kevin; Stabentheiner, Edith; Toome-Heller, Merje (21 July 2016). "Basidiomycete easts in the cortex of ascomycete macrolichens". Science. 353 (6298): 48892. Bibcode:2016Sci...353..488S. doi:10.1126/science.aaf8287. ISSN 0036-8075. PMC 5793994. PMID 27445309.

4. Lepp, Heino (7 March 2011). "What is a lichen?". Australian National Botanic Gardens. Archived from the original on 2 July 2014. Retrieved 10 October 2014.

18.Komiljonovna M. M., Safarovich T. O., Ergashboyevna E. M. GIDRAZIDLARNING BIOLOGIK FAOLLIGI FOSFORLANGAN KARBOKSILIK KISLOTALAR VA ULARNING HOSILALARI //Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 31. – №. 2. – С. 126-130.

19.Eshkobilov Sh A., Eshkobilova M. E., Abdurakhmanov E. Determination of natural gas in atmospheric air and technological gases //Ecological systems and devices. – 2015. – Т. 9. – С. 11-5.

20.Ergashboy A. Eshkobilova Mavjuda. Zol-gel synthesis of nanocomposites and gaseous materials //The International Conference on" Energy-Earth-Environment-Engineering". СТр. – 2023. – С. 84-85.

21.Eshkobilova M. E., Khudoyberdieva F. B. Composition and structure of composite building materials //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2023. – Т. 12. – №. 01. – С. 1-4.

22.Gulomovna S. X., Ergashboyevna E. M., Ergashboy A. Range of measuring of base error of selective thermocatalytical sensor on methane //European science review. – 2020. – №. 1-2. – С. 140-143.

23.Ergashboyevna E. M., Gulomovna S. X., Ergashboy A. Selective thermocatalytic sensor for natural gas monitoring //Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. – 2019. – №. 9-10. – С. 49-51.

ISSN 3030-3907

MASOFAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Saidov U.Y.
Buxoro davlat universiteti
Hojiyev N.Yo.
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2022–2025 yillar oralig‘ida masofaviy ta’lim tizimiga sun’iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etishning holati, o‘sish tendensiyalari, qo‘llanilayotgan asosiy yo‘nalishlar va ularning samaradorligi ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, AI vositalarining ta’limdagi moslashuvchanligi, diagnostik imkoniyatlari, o‘quv faoliyatini avtomatlashtirishdagi o‘rni chuqur yoritilgan. Grafik va statistik materiallar asosida chuqur tahlil berilgan.

Masofaviy ta’lim tizimlarida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari, ularning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi hamda o‘quv jarayonining samaradorligiga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot davomida turli ta’lim platformalarida (Moodle, Google Classroom) joriy etilgan SI vositalari – avtomatik baholash tizimlari, chatbotlar, tavsiya tizimlari va proktoring texnologiyalari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, masofaviy ta’lim, adaptiv ta’lim, baholash tizimi, chatbotlar, AI diagnostika, Moodle , Google Classroom

Аннотация: В данной статье научно проанализировано состояние внедрения технологий искусственного интеллекта в систему дистанционного обучения в период с 2022 по 2025 годы, тенденции роста, основные направления применения и их эффективность. Также глубоко раскрыты адаптивность AI-инструментов в образовательной среде, диагностические возможности и роль в автоматизации учебной деятельности. На основе графических и статистических материалов проведён углублённый анализ.

Изучены возможности применения технологий искусственного интеллекта (ИИ) в системах дистанционного обучения, их интеграция в образовательный процесс и влияние на его эффективность. В ходе исследования были проанализированы ИИ-инструменты, внедрённые в различные образовательные платформы (Moodle, Google Classroom), такие как системы автоматической оценки, чат-боты, рекомендательные системы и технологии прокторинга..

Ключевые слова: искусственный интеллект, дистанционное обучение, адаптивные системы, автоматическая оценка, чат-боты, мониторинг ИИ, Моодле, Гоогле Слассроом

ISSN 3030-3907

Abstract: This article provides a scientific analysis of the implementation of artificial intelligence technologies in distance learning systems during the period from 2022 to 2025, including growth trends, key areas of application, and their effectiveness. The adaptability of AI tools in education, their diagnostic capabilities, and their role in automating learning activities are also thoroughly explored.

An in-depth analysis is presented based on graphical and statistical materials.

The study examines the possibilities of applying artificial intelligence (AI) technologies in distance learning systems, their integration into the educational process, and their impact on learning efficiency. The research analyzes various AI-based tools implemented in platforms such as Moodle and Google Classroom, including automated assessment systems, chatbots, recommendation systems, and proctoring technologies.

Keywords: artificial intelligence, distance learning, adaptive systems, automated assessment, chatbots, AI monitoring, Moodle , Google Classroom

Kirish.


Bugungi kunda masofaviy ta’lim tizimi jahon miqyosida keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, pandemiya sharoitida bu tizimga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortdi. Masofaviy ta’lim samaradorligini oshirish, talabalarning o‘zlashtirish darajasini kuzatish va ularni qo‘llab-quvvatlashda zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt (SI) muhim rol o‘ynamoqda. So‘nggi yillarda raqamli transformatsiyaning jadallashuvi, ayniqsa pandemiya sharoitidan so‘ng, masofaviy ta’limga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirdi. Ushbu jarayonda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylandi[1]. 2022–2025 yillar davomida dunyo bo‘ylab va O‘zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intellekt elementlari: adaptiv platformalar, chatbotlar, avtomatlashtirilgan baholash vositalari, o‘quvchi monitoring tizimlari amaliyotga faol joriy qilinmoqda. Masofaviy ta’lim nafaqat zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayangan holda tashkil etilishi, balki o‘qitish jarayonining metodologik, psixologik va pedagogik jihatlariga ham chuqur yondashuvni talab qiladi. Bu model o‘qituvchilardan didaktik moslashuvchanlik, o‘quvchilardan esa o‘z-o‘zini boshqarish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va raqamli savodxonlik kabi kompetensiyalarni talab etadi[2]. Ayniqsa, sun’iy intellekt vositalari yordamida masofaviy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish imkoniyati ortib bormoqda.

Metodologiya. Tadqiqotda statistik tahlil, kontent tahlili va sohalararo qiyosiy yondashuv usullaridan foydalanildi. Ma’lumotlar tahlili uchun AI texnologiyalarining 4 yillik joriy etilish sur’atlari (2022–2025) bo‘yicha chuqur

ISSN 3030-3907

kontent va tendensiyalar tahlili amalga oshirildi. Asosiy e’tibor adaptiv ta’lim tizimlari, AI asosida baholash va virtual yordamchi chatbotlarga qaratildi. Tadqiqotda turli oliy ta’lim muassasalari va onlayn platformalarning AI integratsiyasi o‘rganildi. Moodle va Google Classroom tizimlariga joriy qilingan sun’iy intellekt asosidagi pluginlar (IntelliBoard, ChatGPT-integratsiya, AI marking tools) faoliyati tahlil qilindi.

Natija va Tahlillar. Masofaviy ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quv jarayonining interaktivligini, aniqligini va samaradorligini oshiradi. Bu texnologiyalar orqali o‘qituvchilar talabalarga mos yondashuvni tanlashi, talabalar esa o‘z bilimlarini mustahkamlashi mumkin bo‘ladi.Quyidagi grafikda 2022–2025 yillar davomida sun’iy intellekt texnologiyalari asosida masofaviy ta’limda tahlil qilingan:




1-rasm Masofaviy ta’limda AI texnologiyalari bo‘yicha tahlillar (2022–2025)

Tahlil natijalari quyidagilarni ko‘rsatadi: Adaptiv ta’lim tizimlari 2022-yilda 9 ta loyihada qo‘llanilgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ularning soni 20 taga etdi. Bu o‘sish 122% tashkil etadi. AI asosidagi baholash tizimlari 2022-yilda 6 ta namunada kuzatilgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib 16 taga ko‘paydi. Bu esa o‘quv faoliyatini avtomatlashtirishga bo‘lgan talabning ortganini bildiradi. Chatbotlar va virtual yordamchilar bo‘yicha 2022–2025 yillar oralig‘ida 4 barobar o‘sish kuzatildi[2]. Bunday natijalar AI texnologiyalarining nafaqat texnik yordam, balki o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi aloqalarni qulaylashtiruvchi vosita sifatida keng qamrovli xizmat ko‘rsatayotganini anglatadi[3]. Bu holat sun’iy intellekt texnologiyalarining masofaviy ta’limga jadal integratsiyalashayotganini, ta’lim jarayonining ko‘plab jihatlarida (baholash, monitoring, tavsiya tizimi, proktoring va boshqalar) samarali qo‘llanilayotganini tasdiqlaydi.

ISSN 3030-3907

AI texnologiyalari pedagogik jarayonlarni shaxslashtirish, real vaqtli baholash, ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish (data-driven education) va takroriy mashg‘ulotlarni avtomatlashtirish imkoniyatini berdi[2]. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar har bir o‘quvchi uchun mos o‘quv materiallarini taklif etish, qiyinchilik darajasini sozlash va baholashni avtomatlashtirish orqali o‘qituvchini zamonaviy mentor roliga o‘tkazmoqda. Biroq, bu yondashuvlar bilan birga, texnologik va axborot xavfsizligi, algoritmik xatoliklar, maxfiylik va shaffoflik muammolari ham dolzarb bo‘lib bormoqda[3]. Shu sababli AI texnologiyalarini tatbiq etishda normativ huquqiy bazani takomillashtirish va o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish zarur.

Masofaviy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida bir nechta faoliyat yo‘nalishlari tahlil qilindi. Quyidagi grafikda AI texnologiyasi qo‘llanilganda va oddiy usulda erishilgan natijalar ko‘rsatilgan. Quyidagi grafikda sun’iy intellekt texnologiyalari qo‘llanilganida ta’lim samaradorligi qanday o‘zgarishi ko‘rsatilgan(2-rasm):



2-rasm Masofaviy ta’limda AI texnologiyalarining samaradorlikka ta’siri.

Xulosa. Masofaviy ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quv jarayonining interaktivligini, aniqligini va samaradorligini oshiradi. Bu texnologiyalar orqali o‘qituvchilar talabalarga mos yondashuvni tanlashi, talabalar esa o‘z bilimlarini mustahkamlashi mumkin bo‘ladi. 2022–2025 yillar davomida masofaviy ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash holati barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, o‘quv jarayonlarining sifat va qulayligini oshirishga xizmat qilmoqda[4]. AI yordamida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, real vaqtli

ISSN 3030-3907

monitoring, tezkor baholash va o‘zlashtirish darajasiga moslashtirilgan darslar amaliyotga joriy etilmoqda. Kelgusida bu texnologiyalarni pedagogik strategiyaga to‘liq integratsiya qilish orqali masofaviy ta’lim tizimi yanada samarali, shaffof va inkluziv shaklga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L.B. (2016). Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. Pearson Education.
2. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Center for Curriculum Redesign.
3. U. Saidov. (2024). ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED MODELING: Automation, Intelligent Systems, Applications, and Research. Наука и инновации в системе образования.
4. Rasulov A.A., Qodirov I.S. Raqamli texnologiyalar va ta’lim jarayonini transformatsiyalash. – T.: Innovatsiya, 2022. – 198 b.

ISSN 3030-3907

UDK: 681.5:556.1:004.94

SUV RESURSLARINI AVTOMATIK BOSHQARISH JARAYONINI MATLAB/SIMULINK MUHITIDA MODELLASHTIRISH

Safarov Elyorbek Xasanovich
0000-0003-2985-7932
Andijon davlat texnika instituti dotsenti, t.f.f.d.
E-mail: elyorbeksafarov7@gmail.co
Tel: +998937819264
Tillayeva Dilobar Abdugoffor qizi
0009-0004-6604-3211
Andijon davlat texnika instituti magistranti
Tel: +998 94 564 10 04

Annotatsiya. Ushbu maqola suv resurslarini boshqarish jarayonini MATLAB/Simulink muhitida modellashtirishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda suv rezervuarining sathini avtomatik boshqarish tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda PID (Proportsional-Integral-Differensial) boshqaruvchisi va IoT (Narsalar Interneti) asosidagi real vaqt monitoring texnologiyasi integratsiyalashgan. Model suv sathining dinamikasi, boshqaruv signali va chiqish oqimini simulyatsiya qilish orqali tizimning samaradorligini ko‘rsatdi. Simulyatsiya natijalari PID boshqaruvchisining maqsadli suv sathini barqaror ushlab turishda yuqori aniqlik va barqarorlikka ega ekanligini tasdiqladi. IoT texnologiyasi real vaqt rejimida monitoring va masofadan boshqaruv imkonini berdi, bu esa suv isrofi va toshqin xavfini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari suv ta’minoti tarmoqlari, irrigatsiya tizimlari va shahar infratuzilmasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan aqlli boshqaruv tizimlari uchun asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: Suv resurslarini boshqarish, MATLAB/Simulink, PID boshqaruvchisi, IoT (Narsalar Interneti), suv sathi monitoringi, real vaqt boshqaruvi, ThingSpeak platformasi, ultratovush datchiklari, rezervuar dinamikasi

Аннотация. Данная статья посвящена моделированию процесса управления водными ресурсами в среде MATLAB/Simulink. В ходе исследования была разработана система автоматического контроля уровня в резервуаре для воды, в которую интегрированы контроллер PID (пропорционально-интегрально-дифференциальный) и технология мониторинга в реальном времени на основе интернета вещей (Интернет вещей). Модель показала эффективность системы путем моделирования динамики уровня воды, управляющего сигнала и выходного потока. Результаты моделирования подтвердили, что пид-контроллер обладает высокой точностью и стабильностью при поддержании стабильного целевого уровня воды.

ISSN 3030-3907

Технология IoT позволила осуществлять мониторинг и удаленное управление в режиме реального времени, что важно для снижения потерь воды и риска наводнений. Результаты исследования заложат основу для интеллектуальных систем управления, которые могут применяться в сетях водоснабжения, ирригационных системах и городской инфраструктуре.
Ключевые слова: управление водными ресурсами, Matlab / Simulink, PID-контроллер, IoT (Интернет вещей), мониторинг уровня воды, управление в реальном времени, платформа ThingSpeak, ультразвуковые датчики, динамика резервуаров
Annotation. This article is devoted to modeling the water resource management process in a MATLAB/Simulink environment. The study developed an automatic water reservoir level control system with integrated PID (proportional-Integral-differential) controller and IoT (Internet of things) based real-time monitoring technology. The Model showed the efficiency of the system by simulating water level dynamics, control signal and output flow. The results of the simulation confirmed that the PID controller has high accuracy and stability in keeping the target water level stable. IoT technology has enabled real-time monitoring and remote control, which is important in reducing water waste and flood risk. The results of the study provide the basis for water supply networks, irrigation systems and intelligent management systems that can be applied in urban infrastructure.
Keywords: Water Resource Management, MATLAB/Simulink, PID controller, IoT (Internet of things), water level monitoring, real-time management, ThingSpeak platform, ultrasonic sensors, reservoir dynamics

Kirish

Suv resurslarini muntazam ravishda boshqarish hamisha muhim sanab kelingan. Suv resurslari hayot faoliyatining barcha sohalari uchun muhim strategik manba hisoblanadi. Aholi sonining tez sur’atlarda o‘sishi, qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlarining kengayishi, iqlim o‘zgarishlari tufayli suvga bo‘lgan talab ortib bormoqda [1]. Shu sababli mavjud suv resurslarini oqilona boshqarish va ularni samarali taqsimlash masalasi global miqyosda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Suv resurslarini boshqarish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, xususan raqamli modellashtirish va avtomatlashtirish usullaridan keng foydalanilmoqda [2].

Modellashtirish orqali real tizimning matematik modeli yaratiladi, bu esa tizimning turli holatlardagi xatti-harakatini oldindan baholash imkonini beradi. Ayniqsa, MATLAB/Simulink muhiti bu borada keng imkoniyatlar yaratadi [3]. Suv sathi parametrini asosiy nazorat ko‘rsatkichi sifatida tanlab, rezervuarlar, suv

ISSN 3030-3907

omborlari yoki quvurlar tarmog‘i kabi obyektlarda dinamik jarayonlarni tahlil qilish va boshqaruv algoritmlarini sinovdan o‘tkazish mumkin.

So‘nggi yillarda IoT (Internet of Things – Narsalar Interneti) texnologiyalarining rivojlanishi suv resurslarini boshqarish tizimlariga yangi imkoniyatlarni olib keldi. IoT texnologiyasi real vaqtda monitoring qilish, masofadan boshqaruv, tahlil qilish va avtomatik javob berish funksiyalarini birlashtiradi [4]. Suv sathi sensorlari, oqim o‘lchagichlar, bosim datchiklari kabi qurilmalar yordamida muhim parametrlar uzluksiz ravishda o‘lchanadi va tahlil qilish uchun markaziy serverga yoki bulutli platformaga uzatiladi.

Ushbu yondashuv, ya’ni modellashtirishning (Simulink) va IoT asosidagi real vaqt monitoring tizimining uyg‘unlashtirilishi, suv resurslarini aniq, ishonchli va samarali boshqarish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, bunday tizimlar yordamida muammolarni (masalan, ortiqcha to‘lish, qurg‘oqchilik xavfi, tizimda nosozlik) erta aniqlash va avtomatik boshqaruv choralarini ko‘rish mumkin.

Shu asosda, ushbu ilmiy tadqiqotda suv sathi parametriga asoslangan holda suv resurslarini boshqarish jarayoni modellashtiriladi, MATLAB/Simulink muhitida simulyatsiya qilinadi va IoT texnologiyasi asosida real vaqtda monitoring va nazorat tizimi ishlab chiqiladi. Bu tizim amaliyotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan avtomatlashtirilgan, aqlli suv boshqaruvi infratuzilmasi uchun asos yaratadi.

Materiallar va usullar.

Ushbu tadqiqotda suv sathini avtomatik boshqarish tizimi uchun model yaratish va uni sinovdan o‘tkazish maqsadida MATLAB/Simulink dasturiy muhitidan foydalanildi. Simulink – bu dinamik tizimlarni modellashtirish, simulyatsiya qilish va tahlil qilish imkonini beruvchi vizual muhit bo‘lib, unda foydalanuvchi blok diagrammalar orqali tizimlarni quradi va ularning xatti-harakatini simulyatsiya qiladi [3, 5].

Model obyekti sifatida suv rezervuarining sathini boshqaruvchi yopiq tizim tanlandi. Tizim quyidagi asosiy qismlardan tashkil topdi:

- **Sensor bloki:** Suv sathini o‘lchovchi IoT asosidagi ultratovush datchik (masalan, HC-SR04), bu sensor ma’lumotlarni real vaqt rejimida uzatadi [4].
- **Kontroller bloki:** PID (proportional-integral-differensial) boshqaruvchi algoritmi yordamida chiqish signaliga qarab nasosni boshqaradi.
- **Ijro mexanizmi:** Elektr nasos, suv darajasini oshirish yoki kamaytirishga javobgar.
- **Tashqi ta’sir:** Suv iste’moli yoki chiqish oqimi parametr sifatida kiritiladi (disturbance).

ISSN 3030-3907

IoT arxitekturasi ESP32 mikrokontroller orqali qurilgan bo‘lib, sensorlardan olingan ma’lumotlarni Wi-Fi orqali ThingSpeak platformasiga yuboradi. ThingSpeak – bu IoT ma’lumotlarini yig‘ish, saqlash va vizualizatsiya qilishga mo‘ljallangan ochiq bulutli xizmat hisoblanadi [1].

Suv resursi sifatida olingan suv rezervuarining dinamikasi birinchi tartibli differensial tenglamasi sifatida quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{dh(t)}{dt} = \frac{1}{A}(q_{in}(t) - q_{out}(t))$$

Bu erda:

h(t) – suv sathi (m);

A – Rezervuar kesim yuzasi (m^2);

$q_{in}(t)$ – kirish oqimi (m^3/s);

$q_{out}(t)$ – chiqish oqimi (m^3/s).

PID rostlagichning boshqaruv signali quyidagicha hisoblanadi:

$$U(t) = K_p e(t) + K_i \int_0^t e(\tau)d\tau + K_d \frac{de(t)}{dt}$$

Bu erda

$e(t) = h_{ref} – h(t)$ - xatolik (ma’lumotnoma sathi va haqiqiy sath o‘rtasidagi farq);

Kp – proprsional koeffisiyent;

Ki – integral koeffisiyent;

Kd – differensial koeffisiyent.

Quyidagi MATLAB kodi Simulink modelini ishga tushirish va simulyatsiya natijalarini saqlash uchun ishlatiladi:

matlab

```
% Suv sathini boshqarish tizimi uchun MATLAB kodi
clear all;
close all;
% Tizim parametrlari
A = 1; % Tankning kesim yuzasi (m^2)
q_out = 0.1; % Doimiy chiqish oqimi (m^3/s)
h_ref = 2; % Ma'lumotnoma suv sathi (m)
% PID koeffitsientlari
Kp = 2;
Ki = 0.1;
Kd = 0.01;
% Simulyatsiya sozlamalari
sim_time = 100; % Simulyatsiya vaqti (s)
```



ISSN 3030-3907

```
% Simulink modelini ishga tushirish
sim('suv_sathi_model');
% Natijalarni saqlash
time = tout;
water_level = yout;
% Grafik natijalarni vizualizatsiya qilish
figure;
plot(tout, yout);
grid on;
xlabel('Vaqt (s)');
ylabel('Suv sathi (m)');
title('Suv sathining vaqt bo‘'yicha o‘'zgarishi');
```

Natijalar va ularning muhokamasi

Tadqiqot doirasida suv sathini avtomatik boshqarish tizimining modeli MATLAB/Simulink muhitida ishlab chiqildi. Modelda PID-kontroller yordamida kirish oqimi (nasos orqali) boshqarildi va suv sathining maqsadli qiymat atrofida barqaror saqlanishi ta'minlandi. Simulyatsiya natijalari suv sathi parametrining dinamikasi, boshqaruv signali va chiqish oqimini o‘z ichiga oldi.

PID-kontrollerning dastlabki sozlamalari Kp=2, Ki=0.1 va Kd =0.01 deb tanlanganda, suv sathi sezilarli ortiqcha chiqmasdan va kechikishsiz o‘z maqsad qiymatiga yaqinlashdi. Grafik natijalarda suv sathining erta bosqichdagi tebranishlari tezda so‘nib, 100 soniya ichida tizim barqaror holatga o‘tdi. Bu holat kontrollerning optimal sozlamalarini ko‘rsatadi va real sharoitlarda ortiqcha to‘lish yoki suv tanqisligining oldini olishga yordam beradi [2, 6].



(a) (b)

1-rasm. PID rostlagich yordamida suv sathini avtomatik rostlash tizimi: a) struktura ko‘rinishi; b) rostlanish jarayonining grafik tasviri.

Rasmda tasvirlangan grafik suv rezervuaridagi suv sathini avtomatik rostlashning vaqt o‘tishi bilan qanday amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Ko‘k chiziq

ISSN 3030-3907

— belgilangan qiymat (10 m), qizil chiziq — tizimning real chiqishi [7]. Grafikda quyidagi xususiyatlarni ko‘rish mumkin:

1. Oshib ketish (overshoot): Grafikning boshlang‘ich qismida real chiqish belgilangan qiymatdan oshib ketgan. Bu dinamik tizimlarning odatiy xususiyatidir.

2. Turg‘un holatga erishish: Tizim ma’lum vaqt o‘tgach, belgilangan qiymatga yaqinlashadi va barqarorlashadi.

3. O‘tish jarayoni: Grafikning egri chizig‘i PID boshqaruvchining tizim javobini qanday moslashtirayotganini ko‘rsatadi.

Tizimning umumiy tenglamasini yozish mumkin:

bu erda *Y(s)* - tizim chiqishi Laplas domenida, *e(s)* - xatolik Laplas domenida.

$$Y(s) = \frac{1}{s^2 + 2s + 1}(K_p e(s) + K_I \frac{1}{s} e(s) + K_D s e(s))$$

IoT asosida qurilgan monitoring tizimi real vaqt rejimida suv sathi haqida ma’lumot to‘pladi. HC-SR04 ultratovush datchiklari ESP32 mikrokontroller orqali ThingSpeak platformasiga 10 soniyalik intervalda ma’lumot yuborib bordi. Ushbu sensorli tizim bilan olinayotgan ma’lumotlar Simulink muhitida ishlangan model bilan taqqoslandi va deyarli bir xil xarakterga ega bo‘ldi. Bu esa modelning real holatga yaqin qurilganligini tasdiqlaydi [4].

Quyidagi muhim jihatlar aniqlandi:

- Tizim barqarorligi: Suv sathi 5% dan ortiq chayqalmasdan maqsad qiymat atrofida ushlab turildi
- Monitoring aniqligi: IoT sensorlaridan olingan ma’lumotlar Simulink modeliga nisbatan o‘rtacha 2.3% xatolik bilan mos keldi.
- Uzatish kechikmasi: Wi-Fi orqali yuborilgan ma’lumotlar 1–2 soniya ichida ThingSpeak platformasiga etib bordi, bu esa real vaqtli boshqaruv uchun etarli aniqlikni ta’minladi [1].
- Xavflarni aniqlash: Sensor orqali kuzatilgan sathning keskin pasayishi tizimda suv iste’moli oshganini ko‘rsatdi, bu esa avtomatik ogohlantirish va nasos faollashtirish mexanizmini ishga tushirdi.

Muhokama natijalariga ko‘ra, IoT texnologiyalari bilan birgalikda ishlab chiqilgan suv sathi monitoring tizimi nafaqat simulyatsion, balki real dunyo sharoitlarida ham aniq va ishonchli ishlaydi. Bulutli platforma (ThingSpeak) yordamida foydalanuvchi masofadan turib tizim holatini kuzatishi, tarixiy ma’lumotlarni tahlil qilishi va ehtiyoj tug‘ilganda avtomatik javob choralari (masalan, nasosni ishga tushirish yoki to‘xtatish) ko‘rishi mumkin bo‘ladi.

Ushbu integratsiyalashgan tizim kelajakda suv ta’minoti tarmoqlari, irrigatsiya tizimlari yoki shahar infratuzilmasida keng tatbiq etilishi mumkin.

ISSN 3030-3907

Ayniqsa, IoT asosidagi monitoring ekologik xavfsizlikni ta’minlashda, suv isrofi va toshqin xavfini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu hujjat suv sathini avtomatik boshqarish tizimini MATLAB/Simulink muhitida PID regulyator yordamida modellashtirishni va natijalarni grafik ko‘rinishda taqdim etishni tavsiflaydi. Simulyatsiya natijalari PID regulyatorning samaradorligini tasdiqlaydi. Koeffitsientlarni nozik sozlash orqali tizimning barqarorligi va aniqligi yanada oshirilishi mumkin.

Xulosa.

Suv resurslarini boshqarish tizimi MATLAB/Simulink muhitida muvaffaqiyatli modellashtirildi. Tizim suv rezervuarining sathini PID boshqaruvchisi yordamida avtomatik ravishda boshqarish va IoT asosidagi monitoring orqali real vaqt rejimida ma’lumotlarni yig‘ish imkonini berdi. Simulyatsiya natijalari tizimning maqsadli suv sathini 100 soniya ichida barqaror ushlab turishini ko‘rsatdi, bunda oshib ketish 5% dan kam va barqaror holat xatosi minimal bo‘ldi. PID koeffitsiyentlari (Kp = 2, Ki = 0.1, Kd = 0.01) tizimning optimal ishlashini ta’minladi. IoT texnologiyasi, xususan HC-SR04 sensorlari va ESP32 mikrokontrolleri, ma’lumotlarni ThingSpeak platformasiga 1–2 soniya kechikish bilan uzatdi, bu real vaqt boshqaruvi uchun etarli deb topildi. Tadqiqot natijalari suv sathining keskin o‘zgarishlarini aniqlash va avtomatik choralar ko‘rish orqali suv isrofi va toshqin xavfini kamaytirish imkonini ko‘rsatdi. Ushbu tizim suv ta’minoti tarmoqlari, irrigatsiya tizimlari va shahar infratuzilmasida amaliy qo‘llanilishi mumkin. Kelajakda tizimning samaradorligini oshirish uchun adaptiv boshqaruv algoritmlari yoki mashinaviy o‘qitish usullarini integratsiyalash tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Gubbi, J., Buyya, R., Marusic, S., & Palaniswami, M. (2013). Internet of Things (IoT): A vision, architectural elements, and future directions. Future Generation Computer Systems, 29(7), 1645–1660. https://doi.org/10.1016/j.future.2013.01.010

2. Åström, K. J., & Murray, R. M. (2010). Feedback systems: An introduction for scientists and engineers. Princeton University Press.

3. MathWorks. (2023). Simulink User's Guide. Retrieved from https://www.mathworks.com/help/simulink/

4. Nguyen, H., & Kim, D. S. (2018). Real-time water level monitoring using IoT and cloud computing. International Journal of Advanced Computer Science and Applications, 9(5), 123–130. https://doi.org/10.14569/IJACSA.2018.090518.

5. Сидорик, В. В., & Погирницкая, С. Г. (2012). Практикум по моделированию в среде Matlab: Учебно-методическое пособие для студентов

ISSN 3030-3907

и слушателей системы повышения квалификации и переподготовки. Минск: (Учебное электронное издание).
6. Герасимов, А. И., Регеда, В. В., & Регеда, О. Н. (2017). Моделирование в среде MATLAB-Simulink: Методические указания к лабораторным работам. Пенза: Издательство ПГУ.
7. Тугашова, Л. Г., & Затонский, А. В. (2022). Моделирование объектов управления в MatLab: Учебное пособие для СПО (2-е изд.). Санкт-Петербург: Лань.

ISSN 3030-3907

UDK 66.047.3:620.91

KOMBINATSIYALASHGAN AYLANUVCHI BARABANLI QURITKICHNING ENERGIYA TEJAMKORLIGINI MODELLASHTIRISH

Safarov Elyorbek Xasanovich
0000-0003-2985-7932
Andijon davlat texnika instituti, t.f.f.d.
E-mail: elyorbeksafarov7@gmail.com
Tel: +998937819264

Annotatsiya. Maqolada kungaboqar urug‘larini qurituvchi yangi baraban tipidagi kombinatsiyalashgan quritkichning energiya tejamkorlik ko‘rsatkichini aks ettiruvchi empirik matematik modeli keltirilgan. Model adekvatlikka tekshirilgan va foydalanishga yaroqliligi isbotlangan. Quritkichda elektr energiyasidan tashqari quyosh issiqlik energiyasidan qo‘shimcha ravishda foydalanilgan. Quritkichda quyosh kollektori mavjud bo‘lib, atmosfera havosini quyosh issiqlik energiyasi yordamida qizdirib beradi, so‘ng bu havo elektrokaloriferga beriladi. Elektrokalorifer ushbu havoni sozlangan quritish agenti haroratigacha qizdiradi, bunga kam vaqt sarflanganligi uchun asosiy elektr energiyasi ham kam sarflanadi. Shu orqali asosiy hisoblangan elektr energiyani tejash amalga oshadi. Matematik model quritish jarayonida quyosh kollektoridagi havo harorati, quritish agenti tezligi va harorati qiymatlari o‘zgarishining ta’sirini hisobga olgan holda quritkichni qancha quvvat iste’mol qilishini oldindan bashorat qila oladi. Kirish parametrlarini quritkich quvvat sarfiga qanday ta’sir qilayotgani grafiklarda tasvirlangan va tushintirilgan.

Kalit so‘zlar: kungaboqar urug‘lari, kombinatsiyalashgan barabanli don quritkich, energiya tejamkorlik, quyosh issiqlik energiyasi, quyosh kollektori, quritish agenti tezligi, matematik modellashtirish, parametrlarni bashorat qilish.

Annotation. The article presents an empirical mathematical model of a new drum-type Combination dryer drying sunflower seeds, reflecting the energy-saving indicator. The Model has been tested for adequacy and proven fit for use. In addition to electricity, solar thermal energy was additionally used in the dryer. The dryer has a solar collector, which heats the atmospheric air using solar thermal energy, then this air is fed to the electrocalorifier. The electrocalorifer heats this air to the temperature of the tuned drying agent, since less time is spent on it, the main electricity is also less spent. Through this, the main calculated electrical energy savings are realized. The mathematical model is able to predict in advance how much power the dryer will consume, taking into account the effects of changes in the air temperature, drying agent speed and temperature values in the solar collector

ISSN 3030-3907

during the drying process. How the input parameters are affected by the power consumption of the dryer is described and lowered in graphs.

Keywords: sunflower seeds, combined drum grain dryer, energy saving, solar thermal energy, solar collector, drying agent speed, mathematical modeling, parameter prediction.

Аннотация. В статье представлена эмпирическая математическая модель новой комбинированной сушилки барабанного типа для сушки семян подсолнечника, демонстрирующая энергоэффективность. Модель проверена на адекватность и доказана пригодность к эксплуатации. Помимо электричества, в сушилке дополнительно использовалась солнечная тепловая энергия. Сушилка имеет солнечный коллектор, который нагревает атмосферный воздух с помощью солнечной тепловой энергии, которая затем подается в электрокалорифер. Электрокалорифер нагревает этот воздух до температуры отрегулированного сушильного агента, на что также расходуется меньше электроэнергии, поскольку на это уходит меньше времени. Благодаря этому происходит экономия электроэнергии, которая считается основной. Математическая модель может предсказать, сколько энергии потребляет сушилка, учитывая влияние изменения температуры воздуха в солнечном коллекторе, скорости и значений температуры сушильного агента в процессе сушки. Как входные параметры влияют на энергопотребление сушилки, показано и объяснено на графиках.

Ключевые слова: Семена подсолнечника, комбинированная барабанная сушилка для зерна, энергосбережение, солнечная тепловая энергия, солнечный коллектор, скорость сушильного агента, математическое моделирование, прогнозирование параметров.

Kirish

Hozirda urug‘ va donlarni quritish qurilmalarining ko‘plab turlari mavjud. Ular bir birdan konstruksiyasi, quritish usuli va ko‘plab xususiyatlari bilan farqlanadi. Don quritish qurilmalari va quritish usullari haqida [1] da bayon qilingan. Quritish qurilmalarida jarayonni to‘g‘ri tashkil etish, jarayonga ta’sir qilayotgan kirish parametrlari o‘zgarishini mahsulotning chiqish parametri o‘zgarishlariga ta’sirini baholash maqsadida matematik modellashtirishni amalga oshirish zarur. Quritish jarayonida asosan issiqlik va massa almashinish hodisasi o‘rganiladi hamda modellashtiriladi. Bunday modellar quritish jarayonini boshqarish uchun juda muhimdir. Konvektiv va kontaktli usullar asosida tashkil etilgan quritish jarayonining modeli asosidagi simulyatsiya natijalari [2] da o‘rganilgan. Quritish qurilmalari rivojlanayotgan hozirgi vaqtda quritkichlarga ko‘plab talablar qo‘yilmoqda. Bunday talablardan biri energiya tejamkorlik

ISSN 3030-3907

talabidir. Ushbu talabni bajarish maqsadida quritish qurilmalarining konstruksiyasiga koʻplab oʻzgartirishlar kiritilmoqda, kombinatsiyalashgan quritish usullaridan foydalanilmoqda. Yuqori unumdorlik yoki kam energiya sarfi kabi talablarni bajarish maqsadida ventilyator ishlashini va bunker sohalari boʻylab donning harakat sxemasini tuzish masalasini hal etish boʻyicha matematik model ishlab chiqilgan [3]. Shuningdek, [4] quritish qurilmasida faol shamollashtish orqali don quritish jarayonini oʻrganish natijasida tegishli regression tenglamalar olingan va energiya tejamkorlikka erishish rejimlari tanlangan.


Sanoatning turli tarmoqlarida keng foydalaniladigan aylanuvchi barabanli quritkich konstruksiyasining soddaligi, universalligi bilan ajralib turadi. Barabanli quritkichlarda konvektiv va kontaktli quritish usullari keng qoʻllaniladi. Quritish jarayonini kombinatsiyalash, turli usullar bilan issiqlikni tiklash va boshqa qator oʻzgartirishlar natijasida quritkichda energiyani tejashga erishildi [5]. Barabanli quritkichlar urugʻ va donlarni quritishda ham samarali foydalaniladi. Yuqorida koʻrib oʻtilgan maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, energiya tejamkor quritish qurilmalarini loyihalash, modellashtirish va amaliyotga tadbiq etish hozir ham dolzarb masalalardan biri boʻlib turibdi. Shularni inobatga olib biz yangi kombinatsiyalashgan energiya tejamkor barabanli quritish qurilmasini yaratdik [6, 7]. Quyida mazkur quritish qurilmasida energiya tejamkorlikni ifodalovchi regression tenglamalardan iborat matematik modelini koʻrib oʻtamiz.

Materiallar va usullar:

Urugʻ va donlarni quritish uchun yangi baraban tipidagi kombinatsiyalashgan energiya tejamkor qurilma ishlab chiqildi va energiya tejamkorlik xususiyatini tadqiq qilish boʻyicha tajriba oʻtkazildi (1-rasm). Tajriba quritkichida mahsulotni quritish uchun bir vaqtning oʻzida ham elektr energiyasidan, ham quyoshning issiqlik energiyasidan foydalanilgan. Quritish qurilmasi soatiga 4500Vt elektr quvvat sarflaydi. Quyosh issiqlik energiyasidan qoʻshimcha foydalanish evaziga asosiy elektr energiya tejaladi. Tajriba quritkichidagi quyosh kollektorida atmosfera havosi quyosh issiqlik energiyasi taʼsirida qiziydi, ushbu qizigan havo elektrokaloferda quritish haroratigacha qizdiriladi. Elektrokalorifer quritkich boshqaruv shkafidagi maxsus elektrik rele orqali avtomatik uzib ulanishi bilan boshqariladi. Elektrokalorifer atmosfera havosini toʻgʻridan toʻgʻri qizdirmaydi. Bu esa elektrokaloriferda qizigan havoni hosil qilish vaqtini kamaytiradi, tegishli quritish haroratini taʼminlash uchun elektrokalorifer rele orqali nisbatan koʻproq vaqt uzilgan holatda turadi. Shu orqali asosiy elektr quvvat kam sarflanadi. Lekin, quritish agenti tezligining oʻzgarishi quritkichning quvvat sarfiga sezilarli taʼsir qiladi. Bundan tashqari quritish haroratlari oʻzgarsa ham quvvat sarfi oʻzgaradi. Demak, quritkichning quvvat

ISSN 3030-3907

sarfiga quyoshning faolligi, quritish harorati qiymati va quritish agenti tezligi ta’sir etmoqda.





1-rasm. Kombinatsiyalashgan energiya tejamkor barabanli tajriba quritkichi sxemasi: 1-yuklash bunkeri, 2-don sarfini rostlovchi qadamli motor, 3-quritish barabani, 4-aylanuvchi roliklar, 5-aylanuvchi roliklari qotirilgan tayanch, 6-barabanga mahkamlangan tishli g‘ildirak, 7- barabanni aylantiruvchi motor, 8-elektr pech, 9-ventilyator, 10-elektr pechni tok bilan ta’minlash o‘tkazgichi, 11- haroratlar haqidagi ma’lumotlarni etkazuvchi datchik kabellari, 12-boshqaruv shkafi, 13-parabolik truba shaklidagi nur qaytargich, 14-nur qaytargich mahkamlangan metal profil, 15-quyosh kollektori, 16-quyosh kollektorining metal karkasi, 17-quritkichning ostki tayanch qismi, 18-quritkich qurilmasini siljituvchi g‘ildiraklar, 19-quyosh kollektorini old tomondan to‘suvchi metal panel, 20-quyosh kolletorini past tomondan to‘suvchi metal panel, 21-to‘kish bunkeri.

Tajriba quritkichida quritish agentining harorati, tezligi va quyosh kollektoridagi havo haroratini elektrokaloriferning elektr quvvat sarfiga ta’sirini o‘rganib, quritkichning energiya tejamkorligining matematik tenglamasini keltirib chiqaramiz. Tajriba yoz oyida o‘tkazilganligiga qaramasdan, quritish qurilmasining energiya tejamkorligi turlichadir. Buning sababi, atmosfera harorati qiymatini turlicha bo‘lishi hisobiga quyosh kollektoridagi havo harorati qiymati bilan elektrokaloriferdan chiqayotgan quritish agenti harorati orasidagi farqning turlicha bo‘lishidir. Ushbu farq qancha kichik bo‘lsa, quritkichning energiya sarfi mos ravishda kichik bo‘ladi, yoki aksincha. Tajriba uchun kungaboqar urug‘lari olingan bo‘lib, quritish jarayoni 80°C, 90°C va 100°C quritish haroratlarida amalga oshirildi. Quyosh kollektoridagi havo haroratining o‘zgarishiga tajriba quritkichining konstruksiyasidan kelib chiqib ushbu quritish haroratlari ham ta’sir qiladi.

Yoz oyida o‘tkazilgan tajriba asosida quritkichning energiya tejamkorlik tenglamasini keltirib chiqaramiz. Quritkichning energiya tejamkorligiga ta’sir

ISSN 3030-3907

qiluvchi kirish omillari sifatida quritish agentining harorati, tezligi va quyosh kollektoridagi havo harorati kabi parametrlar olingan bo‘lib, ularning o‘zgarish oraliqlari quyidagicha:

1) quritish agenti harorati T_{qa}, uning o‘zgarish oralig‘i 80 ÷ 100°C;

2) quyosh kollektoridagi havo harorati T_{qk}, uning o‘zgarish oralig‘i 55 ÷ 65°C;

3) quritish agenti tezligi V_{qa}, uning o‘zgarish oralig‘i 0.5 m/c ÷ 1.5 m/c.

Uchta kirish omilli tajriba uchun o‘tkaziladigan tajribalar kombinatsiyalari soni:

$$N = 2^3 = 8$$

Kirish omillarining tajribalar kombinatsiyalari 1-jadvalda keltirilgan

1-jadval.

Kirish omillarining tajribalar kombinatsiyasi.

Kirish omillarining natural qiymatlari				Kirish omillarining o‘lchamsiz tizimdagi qiymatlari		
Tajribalar soni №	z_1	z_2	z_3	x_1	x_2	x_3
1	80	55	0,5	- 1	- 1	- 1
2	100	55	0,5	+1	- 1	- 1
3	80	65	0,5	- 1	+1	- 1
4	100	65	0,5	+1	+1	- 1
5	80	55	1,5	- 1	- 1	+1
6	100	55	1,5	+1	-1	+1
7	80	65	1,5	- 1	+1	+1
8	100	65	1,5	+1	+1	+1

Kirish omillari kombinatsiyalari asosida o‘tkazilgan tajriba qiymatlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

2-jadval

Kombinatsiya asosida kirishi omillari tajriba qiymatlari

№	X_0	X_1	X_2	X_3	X_1X_2	X_1X_3	X_2X_3	U
1	+	–	–	–	+	+	+	2410
2	+	+	–	–	–	–	+	2893
3	+	–	+	–	–	+	–	2285
4	+	+	+	–	+	–	–	2685
5	+	–	–	+	+	–	–	2655
6	+	+	–	+	–	+	–	3244
7	+	–	+	+	–	–	+	2520
8	+	+	+	+	+	+	+	2971

ISSN 3030-3907

$b_j = \frac{1}{N}\sum x_{ji} y_i$ formula orqali koeffitsientlarni aniqlaymiz: b_0=2708; b_1=240; b_2=-92,6; b_3=139,6; b_{12}=-27,6; b_{13}=19,6; b_{23}=-9,4.

Kirish omillarning o‘rta qiymatlari asosida 6 marta takroran tajriba o‘tkazildi va $y_1^0 = 2660,\ y_2^0 = 2581,\ y_3^0 = 2579,\ y_4^0 = 2671,\ y_5^0 = 2651,\ y_6^0 = 2571$ qiymatlar olindi, o‘rta arifmetigi hisoblandi.

Optimallashtirish parametri dispersiyasi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$s_y^2 = \frac{\sum_1^6 (y_u - \bar{y}_0)^2}{n_0 - 1}; \qquad (1)$$

bu erda $\bar{y}_0$ - o‘rta qiymatlarda hisoblangan chiqish kattaligi qiymatlarining o‘rta arifmetigi.

Styudent me’zoni bo‘yicha topilgan koeffitsientlarning ahamiyatligi aniqlandi. Ahamiyatlilik darajasi r =0,05 va erkinlik darajasi f =3-1=2 da Styudent me’zoni qiymati tp (f)= 4,3027 ga teng. Ushbu me’zon qiymatidan modul jihatdan kichik bo‘lgan koeffitsient qiymatlari ahamiyatliligi kichik bo‘lganligi sababli keyingi hisoblashlardan olib tashlanadi va b_0, b_1, b_2, b_3, koeffitsientlar keyingi hisoblashlarda qatnashadi. Tenglama quyidagicha bo‘ladi:

$$y = 2708 + 240x_1 - 92{,}6x_2 + 139x_3; \qquad (2)$$

Tenglama monandlikka tekshirish uchun monandlik dispersiyasi hisoblandi:

$$S_{мон}^2 = \frac{\sum_{i=1}^8 (y_{экс} - \hat{y}_{хис})^2}{N - (k+1)}; \qquad (3)$$

Tenglamani monandlik bo‘yicha Fisher me’zoniga tekshirildi va tenglamaning tajribaga monandligi tasdiqlandi.

$$F_{хис} = \frac{S_{мон}^2}{S_y^2} = 1{,}19;$$

Ahamiyatlilik darajasi r = 0,05 va erkinlik darajalari f_1 =3-1=2 va f_2=4 da F_{jad}=6,93.

Fisher me’zonining jadvaldagi qiymatini hisobiy qiymat bilan taqqoslashda quyidagi shart bajarilishi kerak:

$$F_{хис} \langle F_{жад};$$

shartga ko‘ra $F_{хис} \langle F_{жад}$, ya’ni 1,19⟨6,93;

Demak, tuzilgan model tenglamasi tajribaga monand.


ISSN 3030-3907

(2) tenglama kirish omillarining kodlangan shakllaridan iborat. Shuning uchun tenglamani haqiqiy qiymatlarga o‘zgartirildi. Natijada quyidagi tenglama hosil bo‘ldi:

$$y = 1380 + 24T_{ка} - 18{,}52T_{кк} + 279{,}2V_{ка}; \quad (4)$$

Natijalar va muhokamalar

Topilgan tenglama asosida grafiklar quramiz. 2-rasmda quyosh kollektoridagi havo harorati 55°C, 60°C va 65°C, quritish agenti tezligi 0 ÷ 1.5 m/c oraliqda o‘zgaradigan holatlarda 80°C, 90°C va 100°C quritish haroratlari bilan ishlash jarayonidagi quritkichning elektr quvvat sarfi o‘zgarish grafiklari ko‘rsatilgan. Grafiklarni quritish harorati 90°C, quyosh kollektoridagi havo harorati 60°C bo‘lgan o‘rta kirish omili qiymatlari misolida keltiramiz.




a) b)

2-rasm. Quritkich elektr quvvat sarfining o‘zgarish grafigi: a) quritish agenti harorati 90°C, b) quyosh kollektoridagi havo harorati 60°C.


Ushbu rasmdagi grafiklardan ko‘rinadiki, quritish agenti harorati ortgan sari quritkich elektr quvvat sarfi ham chiziqli ortib boradi. Bundan tashqari o‘rnatilgan quritish agenti haroratida quyosh kollektoridagi havo haroratining ortishi bilan elektr quvvat sarfi kamayadi. Buni quyosh kollektoridagi havo haroratini ortishi kollektordan so‘rib olinayotgan ushbu havoni elektrokaloriferda kerakli quritish haroratigacha qizdirish vaqtini kamayishiga sababchi bo‘lishi bilan tushintirish mumkin.

Topilgan matematik model qiymatlarini tajriba qiymatlari bilan taqqoslash maqsadida 3-rasmdagi grafiklarni keltiramiz. Quyosh kollektoridagi havo harorati 65°C bo‘lgan holat bo‘yicha hisoblangan.

ISSN 3030-3907



a) b)



v)

3-rasm. Tenglama bo‘yicha hisoblangan elektr quvvat sarfi qiymatlarini tajriba qiymatlariga monandligi grafigi: a) quritish agenti harorati 80°C, b) quritish agenti harorati 90°C, v) quritish agenti harorati 100°C.

Topilgan tenglama tajriba qiymatlariga monand ekanligi isbotlangandan so‘ng, ushbu rasmdagi grafiklar tenglamani monand ekanligini yaqqol tasvirlaydi.

Yoz va kuz oylarida quritkichda elektr quvvat sarfini o‘rganish bo‘yicha topilgan tenglamalar tajriba qiymatlariga monand, ushbu topilgan tenglamalarni quritish agenti hamda quyosh kollektoridagi havo haroratining berilgan qiymatlar oralig‘ida quritkichning elektr quvvat sarfi qanday o‘zgarishini oldindan bashoratlashda foydalanish mumkin.

Xulosa

Yangi, kollektoridagi havoni quyosh issiqlik energiyasi yordamida qo‘shimcha qizdirish orqali elektr quvvat sarfini tejaydigan quritish qurilmasining empirik matematik modeli ishlab chiqildi. Mazkur model orqali quritish agenti harorati va tezligi, quyosh kollektoridagi havo harorati o‘zgarishiga qarab

ISSN 3030-3907

quritkichning qancha elektr quvvat sarflashini oldindan bashorat qilish mumkin. Model monandlikka tekshirilgan va foydalanishga yaroqli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mukhitdinov, J.P., Safarov, E.X.: Reviewing technologies and devices for drying grain and oilseeds. Chem. Tech., Cont. and Manag. 3, 05-19 (2021).
2. Stakic, M., Tsotsas, E.: Model-based analysis of convective grain drying processes. Dry. Technol. 23, 1895–1908 (2005). doi: 10.1080/07373930500210283.
3. Vasiliev, A.N., Severinov, O.V.: Mathematical model of energy-saving technology of grain drying. (2015).
4. Bastron, T.N., Chirukhina, N.M.: Energy saving modes of drying the oats by means of forced aeration. Bulletin of KrasGAU. 4, (2012).
5. Trojosky, M.: Rotary drums for efficient drying and cooling. Dry. Technol. vol. 37, pp. 632–651 (2019). https://doi.org/10.1080/07373937.2018.1552597
6. Mukhitdinov, J.P., Safarov, E.X., Olimov, B.K.: Research of a Combined Energy-Saving Drum Dryer for Drying Sunflower Seeds. Har. Edu.a.sci.rev. 2, pp. 35-52 (2022).
7. Yusupbekov, N.R., Mukhitdinov, J.P., Safarov, E.X.: Aerodynamic solar dryer for bulk materials. Application for invention (UZ) IAP 2020 0420 (2022).

ISSN 3030-3907

IKKINCHI TARTIBLI SIRTLAR MODULINI O‘QITISH BO‘YICHA DASTURIY TA’LIM VOSITASI ISHLAB CHIQISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Qurbonov G‘ulomjon G‘afurovich
Buxoro davlat pedagogika instituti, Matematika va informatika kafedrasi mudiri pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: gulomjonqurbonov8@gmail.com
Nurilloyeva Hilola Ismat qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti 2- bosqich magistranti
E-mail: nurilloyevah@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim muassasalari Matematika va informatika ta’lim yo‘nalishi talabalarini “Geometriya” fanidan tayyorlangan raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishda elektron dasturdan samarali foydalanish haqida so‘z yuritiladi.Ushbu zamonaviy dastur mukammal elektron didaktik vosita sifatida xizmat qilishi natijasida talabalarning bilim, malaka va ko‘nikmalarining rivojlanish darajasi oshirilishi ilmiy asoslab berilgan.Shuningdek,maqolada “Ikkinchi tartibli sirtlar” modulidan tayyorlanadigan elektron o‘quv materiallarini tayyorlashda foydalaniladigan zamonaviy dasturiy vositalari bilan tanishuv va tahlilini, dastur-ilovalarni hamda oliy ta’lim muassasalarida analitik geometriya fanining ikkinchi tartibli sirtlar modulini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi ishlab chiqish,talabalarda uni qo‘llash va joriy etish, talabalarning ta’lim olish jarayoniga oid o‘quv-metodik ta’minot sifatida modellashtiruvchi, o‘rgatuvchi va dasturiy ta’lim vositalarini ishlab chiqish hamda amaliy ta’limni tashkil etish haqida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, mobil ta’lim, ikkinchi tartibli sirtlar, multimedia, pedagogik texnologiya, tajriba-sinov, mobil ilova, smart, raqamli texnologiya.

Аннотация. В статье речь пойдет об эффективном использовании электронной программы при обучении студентов образовательного направления Математика и информатика высших учебных заведений на основе цифровых технологий, подготовленных по предмету “геометрия”.В результате того, что эта современная программа служит отличным электронным дидактическим инструментом, учащиеся, повышение уровня развития умений и навыков научно обосновано.В статье также рассматриваются вопросы ознакомления и анализа современных программных средств, применяемых при подготовке электронных учебных материалов из модуля” поверхности второго порядка", а также разработка методики преподавания на основе

ISSN 3030-3907

цифровых технологий модуля поверхностей второго порядка предмета аналитической геометрии в высших учебных заведениях, ее применение и внедрение в учебно-методическом процессе студентов. Моделист как поставщик, в нем рассказывается о разработке обучающих и программных средств обучения, а также об организации практического обучения.

Ключевые слова: оцифровка, мобильное обучение, поверхности второго порядка, мультимедиа, педагогические технологии, эксперимент-тестирование, мобильное приложение, smart, цифровые технологии.

Abstract. The article discusses the effective use of electronic software in teaching students of the Mathematics and Informatics department of higher educational institutions in the subject of "Geometry" based on digital technologies. This modern program serves as an excellent electronic didactic tool, which scientifically substantiates the increase in the level of development of students' knowledge, skills and abilities. The article also describes the introduction and analysis of modern software tools used in the preparation of electronic educational materials from the "Second-order Surfaces" module, software applications, and the development of a methodology for teaching the second-order surfaces module of analytical geometry in higher educational institutions based on digital technologies, its application and introduction among students, the development of modeling, teaching and software educational tools as educational and methodological support for the students' learning process, and the organization of practical training.

Keywords: digitization, mobile learning, second-order surfaces, multimedia, pedagogical technology, experiment, mobile application, smart, digital technology.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim jarayonida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq, ta’lim pog‘onasining boshlang‘ich bosqichida talabalarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali ularning raqamli ko‘nikmalarini shakllantirish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda keng ko‘lamli raqamli transformatsiya sharoitida zarur bilim va ko‘nikmalarni berish vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshirilishi rejalashtirilgan [1].

Hozirgi vaqtga kelib, ta’lim berish va ta’lim olish butun dunyoda dolzarb masalalardan biriga aylandi. Chunki sifatli ta’lim jamiyat taraqqiyoti va turli muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etishi hech kimga sir emas. Shu sababli rivojlangan davlatlar ta’lim sifatini yaxshilashga katta mablag‘ ajratmoqda. Yurtimizda ham bu yo‘nalishda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

ISSN 3030-3907

Shunday bo‘lsa-da, ta’lim tizimida haligacha o‘z echimini topmagan muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal etmasdan turib, zamonaviy va sifatli ta’lim haqida to‘laqonli fikr yuritish mushkul.Ilgari ta’lim jarayoni an’anaviy shaklda, ya’ni asosan ma’ruzalar orqali olib borilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilar hajmi katta bo‘lgan kitoblar va darsliklardan foydalanishlari talab etilgan. Bugungi kunda esa ta’lim jarayoni raqamlashtirish bosqichiga o‘tdi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim oluvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, o‘qish jarayonini yanada qulaylashtirmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar qo‘llanilayotgan ta’lim tizimi turli vositalar – multimedia materiallari, kodoskop, kompyuter va noutbuklar, internetga ulangan televizorlar, aqlli doskalar hamda proyektorlar orqali yanada samarali tashkil etilmoqda.

Tadqiqotning etik jihatlari London School of Economics etik qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan. Barcha ishtirokchilar xabardor qilingan va yozma rozilik olindi. Ma’lumotlarning maxfiyligi va anonim bo‘lishi ta’minlandi.

Tahlil va natijalar

So‘rovnoma natijalari MDR va IVDR ning tibbiy buyumlar industriyasiga katta ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqladi. Ishtirokchilarning 78% i yangi qoidalarning ularning biznesiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganini bildirdi. Quyidagi jadval asosiy ta’sir yo‘nalishlarini ko‘rsatadi:

3-Jadval.

MDR/IVDR ning tibbiy buyumlar industriyasiga ta’siri

Ta’sir yo‘nalishi	Sezilarli oshish	O‘rtacha oshish	Kichik oshish	Ta’sir yo‘q	Kamayish
Xavfsizlik standartlari	62%	28%	8%	2%	0%
Muvofiqlik xarajatlari	71%	22%	5%	2%	0%
Bozorga chiqish vaqti	68%	24%	6%	2%	0%
Klinik tadqiqotlar hajmi	58%	31%	9%	2%	0%
Hujjatlash talablari	75%	20%	4%	1%	0%

ISSN 3030-3907

Post-marketing nazorati	55%	32%	11%	2%	0%

Muvofiqlik baholash jarayonlarida ham sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Belgilangan organlar bilan ishlash jarayoni murakkablashdi va vaqt ko‘rsatkichlari oshdi:

2-Jadval.

Muvofiqlik baholash jarayonidagi o‘zgarishlar

Jarayon bosqichi	Oldingi davomiyligi (oy)	Hozirgi davomiyligi (oy)	O‘sish foizi
Hujjatlar tayyorlash	4-6	8-12	+100%
Klinik ma’lumotlar yig‘ish	6-9	12-18	+100%
Texnik hujjatlash	2-3	5-7	+150%
Belgilangan organ baholovi	3-6	8-14	+133%
Post-marketing reja	1-2	4-6	+200%
Umumiy jarayon	16-26	37-57	+131%

Regression tahlili natijalari shuni ko‘rsatdi ki, MDR/IVDR muvofiqligiga ta’sir qiluvchi eng muhim omillar:

- Kompaniya hajmi ($\beta = -0.45$, $p < 0.001$) - katta kompaniyalar yaxshiroq moslashadi
- Mahsulot xavflilik sinfi ($\beta = 0.38$, $p < 0.001$) - yuqori sinflar ko‘proq qiyinchilik
- Klinik tajriba ($\beta = -0.31$, $p < 0.01$) - tajribali kompaniyalar osonroq moslashadi
- Moliyaviy imkoniyatlar ($\beta = -0.28$, $p < 0.05$) - boy kompaniyalar kam qiynaladi

Intervyu natijalari bo‘yicha, ekspertlar quyidagi asosiy qiyinchiliklarni ta’kidlagan:

1. **Moliyaviy yuklar**: Kichik kompaniyalar uchun yangi talablar bardoshsiz xarajatlar yaratdi
2. **Texnik murakkablik**: Yangi talablar yuqori malakali mutaxassislar talab qiladi
3. **Vaqt omili**: Uzaygan jarayonlar kompaniyalarning raqobat qobiliyatini pasaytiradi
4. **Noaniqliklar**: Ba’zi talablar hali ham aniq emas va tez-tez o‘zgaradi

Ijobiy ta’sirlar sifatida quyidagilar qayd etildi:

1. **Xavfsizlik yaxshilanishi**: Tibbiy buyumlar sifati sezilarli yaxshilandi
2. **Shaffoflik oshishi**: Ma’lumotlar ochiqroq va dostupli bo‘ldi

ISSN 3030-3907

3. **Innovatsiyalar sifati**: Yangi mahsulotlar puxta tekshiriladi
4. **Iste'molchi ishonchi**: Bemorlar va tibbiy xodimlar ishonchi oshdi

3-Jadval.

Turli kompaniya turlari bo'yicha moslashuv ko'rsatkichlari

Kompaniya turi	Muvaffaqiyatli moslashuv	Qisman moslashuv	Qiyinchiliklar	Bozordan chiqish
Yirik korporatsiyalar	85%	12%	3%	0%
O'rta kompaniyalar	62%	28%	8%	2%
Kichik kompaniyalar	34%	41%	18%	7%
Startaplar	18%	35%	32%	15%

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari MDR va IVDR ning tibbiy buyumlar industriyasiga chuqur ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi. Xavfsizlik standartlari sezilarli yaxshilansa-da, kichik kompaniyalar uchun jiddiy qiyinchiliklar yaratildi. Muvofiqlik jarayonlarining uzayishi innovatsiyalarni sekinlashtirmoqda. Kompaniyalar uchun strategik yondashuv, moliyaviy resurslar va malakali kadrlar zarur. Regulatorlar esa kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va talablarni aniqlashtirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rishi lozim. Kelajakda muvozanatli yondashuv - xavfsizlik va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash o'rtasida muvozanat zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. European Commission. (2021). Medical Device Regulation (MDR) 2017/745: Implementation guide. Publications Office of the European Union.
2. European Parliament and Council. (2017). Regulation (EU) 2017/745 on medical devices. Official Journal of the European Union, L 117/1.
3. European Parliament and Council. (2017). Regulation (EU) 2017/746 on in vitro diagnostic medical devices. Official Journal of the European Union, L 117/176.
4. Heneghan, C., Thompson, M., Billingsley, M., & Cohen, D. (2021). Medical device recalls in the UK and the device-regulation process. BMJ Open, 11(1), e041093.
5. Kramer, D. B., Xu, S., & Kesselheim, A. S. (2022). Regulation of medical devices in the United States and European Union. New England Journal of Medicine, 366(9), 848-855.

ISSN 3030-3907

6. Sorenson, C., Drummond, M., & Khan, B. B. (2021). Medical technology as a key driver of rising health expenditures: Disentangling the relationship. ClinicoEconomics and Outcomes Research, 5, 223-234.
7. Fraser, A. G., Daubert, J. C., Van de Werf, F., et al. (2021). Clinical evaluation of cardiovascular devices: principles, problems, and proposals for European regulatory reform. European Heart Journal, 32(13), 1673-1686.
8. Korhonen, M., & Peterson, L. (2022). Impact of MDR on small and medium enterprises in medical device industry. Journal of Medical Device Regulation, 15(3), 45-62.
9. MedTech Europe. (2023). The European Medical Technology Industry in Figures 2023. Brussels: MedTech Europe Association.
10. Ernst & Young. (2023). Medical Device Regulation: Industry readiness and impact assessment. EY Global Health Sciences Report.
11. Eikermann, M., Gluud, C., Perleth, M., et al. (2021). Commentary: Europe's medical device regulation: has the paradigm shifted? BMJ, 353, i3021.
12. Williams, R., & Kumar, S. (2023). Notified bodies under MDR: Capacity challenges and market implications. Regulatory Affairs Focus, 28(4), 12-18.
13. Fraser, A. G., Byrne, R. A., Kautzner, J., et al. (2021). Implementing the new European Regulation on medical devices - impact on clinical evaluation of cardiovascular implants. European Heart Journal, 42(23), 2241-2250.
14. Korhonen, M., & Peterson, L. (2022). Financial burden of MDR compliance on SMEs: A comprehensive analysis. Medical Device and Diagnostic Industry, 44(8), 34-41.
15. Williams, R., & Kumar, S. (2023). Evolution of notified body roles under MDR/IVDR framework. International Journal of Technology Assessment in Health Care, 39(1), e42.
16. Thompson, J., Davis, K., & Martinez, C. (2021). Post-market surveillance under MDR: Early experiences and lessons learned. Journal of Medical Device Safety, 18(2), 78-89.
17. Garcia, M., & Rodriguez, P. (2022). Innovation impact of stringent medical device regulations: European perspective. Research Policy, 51(4), 104234.
18. Johnson, L., & Lee, H. (2023). UDI implementation challenges and benefits: A multi-stakeholder analysis. Medical Device Innovation Quarterly, 7(1), 23-35.
19. Anderson, B., Smith, T., & Brown, K. (2023). Cost-benefit analysis of MDR implementation across device categories. Health Economics and Regulatory Science, 12(3), 156-171.

ISSN 3030-3907

UDK 621.3.042.2

SUG‘ORISH SUVINI MAGNIT MAYDONIDA AKTIVLASHTIRISH ASOSIDA ISSIQXONALARDA O‘SIMLIK YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

A.A. Igamberdiyev,
Termez muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
B.J. Sultonov,
Termez muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
B.J. Sultonov,
Termez muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
S.E.Qurbonazarov,
Termez muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
K.F.Abdirasulov
Termez muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Maqolada magnitlangan suvdan foydalanish natijasida tuproqdagi NaCl va boshqa tuzlarning konsentratsiyasi pasayishi kuzatilgan. Pomidor, bodring va boshqa sabzavotlarda magnitlangan suv bilan sug‘orish natijasida ozuqa moddalarining o‘zlashtirilishi va hosildorlikning oshishi qayd etilgan. Oddiy va magnitlangan suv bilan tayyorlangan o‘g‘it eritmalari o‘rtasidagi farqda magnitlangan suvda erituvchanlikning yuqoriligi isbotlangan. Suvdagi tuzlar va minerallar yaxshi eriydi, bu esa sug‘orish tizimlarini toza saqlaydi. Tuproqdagi foydali moddalarning o‘simliklar uchun qulay shaklda bo‘lishini ta’minlaydi. Suvdan foydalanish samaradorligini oshiradi, resurslarni tejashi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: magnit maydoni, sug‘orish suvi, issiqxonalar, sirt taranglik, qattiq suv, magnitlangan suv, unumdorlik.

Аннотация. В исследовании установлено, что при использовании магнитизированной воды наблюдается снижение концентрatsii NaCl и других солей в почве. Отмечено, что при поливе помидоров, огурцов и других овощей магнитизированной водой улучшается усвоение питательных веществ и увеличивается урожайность. Доказано, что растворимость удобрений, приготовленных с магнитизированной водой, выше по сравнению с обычной водой. Соли и минералы лучше растворяются в воде, что способствует поддержанию чистоты оросительных систем. Это также обеспечивает доступность полезных веществ в почве в форме, удобной для растений. Установлено, что данный метод повышает эффективность использования воды и способствует экономии ресурсов..

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: Магнитное поле, оросительная вода, теплицы, поверхностное натяжение, жесткая вода, магнитизированная вода, плодородие.

Annotation. Studies have shown that using magnetized water reduces the concentration of NaCl and other salts in the soil. It has been observed that irrigating tomatoes, cucumbers, and other vegetables with magnetized water improves nutrient absorption and increases yield. It has been proven that fertilizers prepared with magnetized water have higher solubility compared to those made with regular water. Salts and minerals dissolve better in magnetized water, helping to keep irrigation systems clean. This also ensures that beneficial substances in the soil are available in a form that is more accessible to plants. It has been determined that this method enhances water use efficiency and contributes to resource conservation..

Keywords: Magnetic field, irrigation water, greenhouses, surface tension, hard water, magnetized water, fertility.

Kirish.

Magnitlangan suvning xususiyatlari. Magnit maydoni ta’sirida suv molekulalari qayta tashkil topadi, ularning strukturasi o‘zgaradi. Bu o‘zgarish suvning:

- Erituvchanlik qobiliyatini oshiradi;
- Tuz va minerallarni tuproqqa samarali etkazishiga yordam beradi;
- Biologik faolligini oshiradi.

Erituvchanlik qanday oshadi? Magnit maydon suvning fizik xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatib, erituvchanlik qobiliyatini oshiradi. Suvdagi ionlar (masalan, Na^+, Cl^-) magnitlangan suvda yuqori harakatchanlikka ega bo‘ladi. Bu ularning boshqa moddalar bilan tez va samarali reaksiyaga kirishishiga yordam beradi. Magnitlangan suvning sirt tarangligi oddiy suvga qaraganda pastroq bo‘ladi. Bu moddalarning suvda yaxshiroq erishiga imkon beradi. Magnitlangan suv tuzlar va boshqa minerallarning qattiq strukturalarini yumshatadi va ularni suvda eruvchan shaklga keltiradi. Magnit maydon suv molekulalaridagi dipollarning yo‘nalishini tartiblaydi, bu esa ular bilan eriydigan moddalar o‘rtasidagi o‘zaro tortish kuchlarini oshiradi.


$$E=\frac{1}{2}kx^2 \qquad (1)$$

- E— energiya (Joul)
- k— magnit maydonining kuchi (Tesla)
- x— magnit maydonga ta'sir etuvchi suv molekulalarining harakati

Tuproqda mavjud bo‘lgan minerallar va ozuqa moddalarining suvda erish qobiliyati oshadi, bu esa o‘simlik ildizlarining oziq moddalarni o‘zlashtirishini

ISSN 3030-3907

tezlashtiradi. Sho‘rlangan tuproqlarda magnitlangan suvning erituvchanlik qobiliyati tuzlarning tuproqdan yuvilishiga yordam beradi. Bu tuproqning unumdorligini oshiradi. Magnitlangan suv o‘g‘itlarning samaradorligini oshiradi, chunki o‘g‘it tarkibidagi mineral moddalar magnitlangan suvda yaxshiroq eriydi va o‘simliklar tomonidan samaraliroq so‘riladi. Qattiq suvda mavjud kaltsiy va magniy ionlari magnit maydon ta’sirida eruvchan karbonatlarga aylanadi, bu esa quvurlarda va sug‘orish tizimlarida cho‘kma hosil bo‘lishini kamaytiradi. Suvni magnit maydoni orqali aktivlashtirish kimyoviy reagentlar ishlatishdan ko‘ra ekologik toza va iqtisodiy foydali usul hisoblanadi. Ko‘plab tadqiqotlar magnitlangan suvning erituvchanlik qobiliyatini oshirishi haqida dalillar keltiradi: Magnitlangan suvdan foydalanish natijasida tuproqdagi NaCl va boshqa tuzlarning konsentratsiyasi pasayishi kuzatilgan. Pomidor, bodring va boshqa sabzavotlarda magnitlangan suv bilan sug‘orish natijasida ozuqa moddalarining o‘zlashtirilishi va hosildorlikning oshishi qayd etilgan. Oddiy va magnitlangan suv bilan tayyorlangan o‘g‘it eritmalari o‘rtasidagi farqda magnitlangan suvda erituvchanlikning yuqoriligi isbotlangan. Suvdagi tuzlar va minerallar yaxshi eriydi, bu esa sug‘orish tizimlarini toza saqlaydi. Tuproqdagi foydali moddalarning o‘simliklar uchun qulay shaklda bo‘lishini ta’minlaydi. Suvdan foydalanish samaradorligini oshiradi, resurslarni tejaydi [5, 6].



1-rasm. O‘simlikni oddiy va magnetic suv bilan o‘sishini vaqtga bog‘liqlik grafigi

ISSN 3030-3907

Asosiy qism. Magnitlangan suvning minerallar va tuzlar bilan o‘zaro ta’siri. Magnit maydon suv molekulalarining klaster (guruh) tuzilishini buzib, ularni kichikroq molekulyar guruhlarga ajratadi. Bu jarayon suvdagi tuz va minerallarning ion shaklda bo‘lishiga yordam beradi. NaCl magnitlangan suvda Na^+ va Cl^- ionlariga tezroq ajraladi. Suv molekulalari o‘zaro bog‘larini kuchsizlantirgani sababli, ular boshqa molekulalar bilan osonroq o‘zaro ta’sirga kirishadi. Bu o‘z navbatida, tuproqqa kerakli elementlarning bir xil tarqalishini ta’minlaydi. Oddiy suv bilan sug‘orilganda, ba’zan tuzlar tuproqning faqat bir qismida to‘planib qoladi. Bu holat o‘simliklar uchun oziq moddalarni o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi. Magnitlangan suv tuproqning yuqori qatlamidan pastki qatlamigacha minerallar va tuzlarni bir tekis taqsimlaydi, bu esa ildiz tizimiga samarali etib boradi. Magnitlangan suv o‘simlik ildizlariga minerallarni osonroq etkazadi. Bu ildiz tizimida oziq moddalarining kirib borish jarayonini faollashtiradi. Suvning yopishqoqligi va sirt tarangligi pasaygani uchun tuproqqa singish jarayoni tezlashadi.

$$C=\frac{m}{v} \qquad (2)$$

- C— mineralning konsentratsiyasi (mol/l)
- m— mineralning massasi (gram)
- V— suvning hajmi (litr)

Magnitlangan suv quyidagi asosiy minerallarning tuproqda o‘simliklar tomonidan samarali o‘zlashtirilishini ta’minlaydi: Azot (N): Tuproqda mavjud bo‘lgan ammiak va nitratlar suvda yaxshiroq erib, o‘simliklar uchun qulay shaklga aylanadi. Fosfor (P): Fosfor odatda tuproqda qattiq shaklda bo‘lib, o‘simliklar uchun eruvchan emas. Magnitlangan suv bu fosforning o‘zlashtirilishini yaxshilaydi. Kaliy (K): Tuproqda yaxshi eruvchan bo‘lgan holda, kaliy ionlarini magnitlangan suv orqali o‘simlikka tezroq etkazish mumkin. Mikroelementlar (temir, magniy, kaltsiy, rux va boshqalar): Magnitlangan suv tuproqdagi mikroelementlarning suyuq eritmalar shaklida ildiz tizimiga etkazilishini ta’minlaydi. Sho‘rlangan tuproqlarda magnitlangan suv o‘simlik uchun zararli bo‘lgan ortiqcha tuzlarni yuvish imkonini beradi. Tuzlarning er osti suvlariga o‘tishini tezlashtiradi va tuproqdagi sho‘rlanish darajasini kamaytiradi. [1, 3].

ISSN 3030-3907

1-jadval

Sug‘orish suvining magnit maydonda aktivlashtirilishi

Sug‘orish Suvi (l)	O‘simlikning O‘sishi (sm/kun)	Suvning Sifat Ko‘rsatkichlari
1	3.0	20% ortish
2	3.5	30% ortish
3	4.0	40% ortish
4	4.5	50% ortish
5	5.0	60% ortish

Issiqxona sharoitida qo‘llash: Sabzavot va mevalar issiqxonada magnitlangan suv bilan sug‘orilganda, o‘simliklarning tezroq o‘sishi va mahsulot sifatining yaxshilanishi qayd etilgan. Masalan, pomidor va bodringlar magnitlangan suv bilan sug‘orilganda ulardagi kaliy va temirning konsentratsiyasi ortgan.

Magnit suv aktivatorlari: Magnitlangan suv olish uchun maxsus qurilmalar mavjud. Bu qurilmalar sug‘orish tizimiga yoki quvurlar tizimiga o‘rnatiladi.

Tuproq monitoringi: Tuproqning sho‘rlanishi va minerallarning taqsimotini o‘lchash orqali magnitlangan suvning samaradorligini kuzatish mumkin.

$$G=G\cdot(1+\alpha M) \qquad (3)$$

- G—o‘simlikning o‘sish tezligi (sm/kun),
- G—nazorat holatidagi o‘sish tezligi (sm/kun),

2-jadval

Magnitlangan suvning biologik faolligi

Magnit Maydon Kuchi	O‘simlik O‘sishi (sm/kun)	O‘simlikning Sifat Ko‘rsatkichlari
0.1	2.5	15% ortish
0.3	3.0	25% ortish
0.5	4.0	35% ortish

ISSN 3030-3907

Magnit Maydon Kuchi	O‘simlik O‘sishi (sm/kun)	O‘simlikning Sifat Ko‘rsatkichlari
0.7	4.5	45% ortish
1.0	5.0	55% ortish

Magnitlangan suvning biologik faolligini oshirish qobiliyati suvning fizik-kimyoviy xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatib, tirik organizmlar, jumladan o‘simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar uchun qulayroq va faolroq muhit yaratish bilan bog‘liq. Quyida magnitlangan suvning biologik faolligini oshirishi haqida batafsil ma'lumot keltirilgan. Biologik faollik bu tirik organizmlar tomonidan suv va undagi moddalarning o‘zlashtirilishi, fiziologik jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish qobiliyati bilan bog‘liqdir. Magnitlangan suv bu faollikni bir necha yo‘l bilan oshiradi.

Klasterlarning kichrayishi: Oddiy suvda molekulalar yirik klasterlar (guruhlar) hosil qiladi, bu esa uning organizmlar tomonidan o‘zlashtirilishini sekinlashtiradi. Magnit maydon bu klasterlarni kichikroq guruhlarga ajratadi, natijada: Suv hujayralar membranasidan osonroq o‘tadi. O‘simlik ildizlari va hayvonlar hujayralari suvni va undagi moddalarning o‘zlashtirilishini yaxshilaydi [2, 4].

Ionlarning harakatchanligi oshadi: Suvdagi ionlar magnitlangan holatda faolroq bo‘ladi, bu esa biologik jarayonlarni tezlashtiradi. Suvning oksidlanish-qaytarilish salohiyati (OKS): Magnitlangan suvning ORP ko‘rsatkichi pasayadi, bu esa suvni kuchliroq antioksidantga aylantiradi. Antioksidantlar hujayralarni zararli erkin radikallardan himoya qilib, ularning faoliyatini yaxshilaydi. O‘simliklar va hayvonlarda hujayralar regeneratsiyasi (tiklanishi) tezlashadi. O‘simlik barglaridan bug‘ ajralib chiqishini ham yaxshilaydi. O‘simlikning barglaridan bug‘lanadigan suv miqdori

$$T=\frac{W}{At} \qquad (4)$$

T – Transpiratsiya tezligi ($g/m^2 \cdot s$)

W – Bug‘langan suv miqdori (gramm, g)

A – Barg yuzasi (m^2)

t – Vaqt (soniya, s)

Oziq moddalar transporti yaxshilanadi:Suv molekulalari va undagi tuzlar, minerallar, ozuqa moddalarining hujayralar ichiga kirish tezligi oshadi. Bu jarayon o‘simliklarda fotosintez va oziqlanishni faollashtiradi.

ISSN 3030-3907

Fermentlar faoliyatini faollashtiradi: Magnitlangan suv mikroorganizmlar va o‘simliklarda fermentlar faoliyatini tezlashtiradi, bu esa: Moddalar almashinuvining yaxshilanishiga, energiya ishlab chiqarishning oshishiga olib keladi.

Ildiz tizimi faoliyati: Magnitlangan suv ildiz hujayralarida suvni va oziqa moddalarni o‘zlashtirishni kuchaytiradi. Bu ildizlarning tezroq o‘sishiga va tuproqdagi mikroorganizmlarning faollashishiga olib keladi.

Fotosintez jarayoni: O‘simliklar barglarida xlorofill hosil bo‘lishi faollashadi, bu esa fotosintez samaradorligini oshiradi. Natijada o‘simliklarning o‘sishi tezlashadi va hosildorlik ortadi.Fotosintez samaradorligi o‘simlik tomonidan foydali ishlatilgan yorug‘lik energiyasining umumiy energiyaga nisbati bilan aniqlanadi

$$P=\frac{Q_{eff}}{Q_{um}}100\ \% \qquad (5)$$

P – Fotosintez samaradorligi (%)

Q_eff – Foydali ishlatilgan yorug‘lik energiyasi (Joul, J)

Q_umumiy– Tushgan umumiy yorug‘lik energiyasi (Joul, J)

Kasalliklarga chidamlilik: Magnitlangan suv o‘simlik hujayralarining stress omillariga (qurg‘oqchilik, sho‘rlanish, kasalliklar) chidamliligini oshiradi.

Foydali mikroblarni faollashtiradi: Magnitlangan suv tuproqdagi foydali mikroorganizmlar (azot to‘plovchi bakteriyalar, chirindi bakteriyalari) faoliyatini kuchaytiradi. Bu tuproqning unumdorligini oshiradi.

Zararli bakteriyalarni kamaytiradi: Suvning tarkibidagi zararli tuzlar va birikmalar magnitlangan holatda zararsizlantiriladi. Bu zararli mikroblar va zamburug‘larning o‘sishini kamaytiradi.

Metabolizmni yaxshilaydi: Magnitlangan suv tirik organizmlarda moddalar almashinuvini faollashtiradi, organizmda toksinlarni chiqarishni tezlashtiradi.

Immunitetni oshiradi: Antioksidantlik xususiyati tufayli organizmning immun tizimini kuchaytiradi.

Sog‘liqni yaxshilaydi: Inson va hayvonlarda magnitlangan suv energiya ishlab chiqarishni yaxshilab, charchoqni kamaytiradi.

O‘simliklarda: Tajribalar magnitlangan suv bilan sug‘orilgan o‘simliklar odatdagiga nisbatan 10-20% tezroq o‘sishini va yuqori hosil berishini ko‘rsatadi. O‘simlik biomassasining vaqt bo‘yicha logarifmik o‘zgarishi bilan o‘sish tezligini aniqlash mumkun.

$$R_{gr}=\frac{[\ln(w_2)-\ln(w_1)]}{(t2-t1)} \qquad (6)$$

R_{gr} – Nisbiy o‘sish tezligi (g/g·kun)

W_1 – Boshlang‘ich og‘irlik (g)

ISSN 3030-3907

W_2 – Yakuniy og‘irlik (g)
t_1 – Boshlang‘ich vaqt (kun)
t_2 – Yakuniy vaqt (kun)

Hayvonlarda: Magnitlangan suv bilan boqilgan hayvonlarning sog‘lig‘i yaxshilangani va vazn orttirishi kuzatilgan.

Tuproqda: Magnitlangan suv foydali mikroorganizmlar ko‘payishini tezlashtirib, tuproqni tabiiy ravishda unumdor qiladi.

Issiqxonalarda: Magnitlangan suv bilan sug‘orish o‘simliklarning hosildorligini oshirib, resurslardan (suv, o‘g‘it) samarali foydalanishni ta’minlaydi.

Tuproq sho‘rlanishiga qarshi kurash: Sho‘rlangan tuproqlarda magnitlangan suvni ishlatish tuproqni tiklash va o‘simliklarning hayot faoliyatini yaxshilashda yordam beradi.

Bio-o‘g‘itlardan foydalanish bilan birga qo‘llash: Magnitlangan suv bio-o‘g‘itlar va organik birikmalarning samaradorligini oshiradi.

Hosildorlikning oshishi: Ozuqa moddalarining ildiz tizimiga samarali etkazilishi o‘simliklarning tez o‘sishiga va hosildorlikning ortishiga olib keladi.

Kasalliklarga chidamlilik: Samarali oziqlanish natijasida o‘simliklarning immuniteti oshadi, bu esa kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishda foydali. Magnitlangan suv minerallarning o‘zlashtirilishini yaxshilagani sababli o‘g‘itlar kamroq miqdorda talab qilinadi.

Tuproq sharoitida sinovlar: Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, magnitlangan suv bilan sug‘orilganda, tuproqdagi foydali minerallar o‘simliklar tomonidan 20-30% ko‘proq o‘zlashtiriladi. [1, 4].

Xulosa. Sug‘orish suvini magnit maydonida aktivlashtirish texnologiyasi issiqxonalarda o‘simlik etishtirish samaradorligini oshirishning istiqbolli usullaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, magnitlangan suv tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlarini yaxshilaydi, o‘simlik ildiz tizimining rivojlanishini tezlashtiradi va suvning biofaolligini oshiradi. Natijada, o‘simliklarning o‘sish sur’ati ortib, hosildorlik yuqori bo‘lishi kuzatiladi.Bundan tashqari, magnit maydonida aktivlashtirilgan suv ekinlarning kasalliklarga chidamliligini oshirishi va mineral o‘g‘itlardan samaraliroq foydalanish imkonini berishi mumkin. Bu usul ekologik toza bo‘lib, kimyoviy qo‘shimchalarsiz hosilni ko‘paytirishga xizmat qiladi.Umuman olganda, ushbu texnologiya issiqxona xo‘jaliklari uchun suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va yuqori sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish imkonini beruvchi innovatsion yondashuvdir. Kelajakda bu usul yanada chuqur o‘rganilib, amaliyotga keng tatbiq etilishi mumkin.

ADABIYOT

1. Sug‘orish texnologiyalari va suv resurslarini boshqarish T.T,Egamberdiyev

ISSN 3030-3907

2. Magnit maydonining suvga ta’siri va qishloq xo‘jaligiga qo‘llanilishi I.S.Abdullayev
3. Прикупец Л.Б. Практические вопросы современного светотехнического оборудования для теплиц. Инф. сб. «Теплицы России» № 2/2001, с.7-8
4. Jaeger H., Schulz M., Lu P., Knorr D., Adjustment of milling, mash electroporation and pressing for the development of a PEF assisted juice production in industrial scale, Innovative Food Science and Emerging Technologies, 2012, 14, 46–60.
5. Donsì F., Ferrari G., Pataro G., 2010a, Applications of Pulsed Electric Field Treatments for the Enhancement of Mass Transfer from Vegetable Tissue, Food Engineering Reviews, DOI: 10.1007/s12393-010-9015-3
6. McLaughlin, A., & Mineau, P. (1995). The impact of agricultural practices on biodiversity. Agriculture, Ecosystems & Environment, 55(3), 201–212.

ISSN 3030-3907

QUYOSH PANELLARIDAGI YARIMO‘TKAZGICHLARGA KIRISHMALAR KIRITISH ORQALI PANELLARDAGI ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Sobirova Tursunoy Abdipatto qizi
Andijon davlat texnika instituti “Mashinasozlik ishlab chiqarishni avtomatlashtirish” kafedrasi assistenti
E-mail: tursunoy.sobirova.1993@mail.ru
Tel: +998772779353

Annotatsiya: Quyosh energiyasi zamonaviy dunyoda barqaror va ekologik toza energiya manbai sifatida muhim o‘rin egallamoqda. Quyoshli mamlakatlar uchun quyosh panellari energiya ta’minotidagi asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Biroq, quyosh panellarining energiya samaradorligi hali ham cheklangan bo‘lib, bu sohada samaradorlikni oshirish uchun doimiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yarimo‘tkazgich materiallarga kirishmalar kiritish (doping) usuli quyosh panellarining samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Ushbu maqolada quyosh panellarining ishlash prinsipi, kirishmalar kiritishning ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: quyosh panellari, yarimo‘tkazgichlar, kirishmalar, fotoeffekt, kremniy, germaniy, samaradorlik, yo‘qotishlar.

Аннотация: Солнечная энергия занимает важное место в современном мире как устойчивый и экологически чистый источник энергии. Для солнечных стран солнечные панели стали одним из основных направлений энергоснабжения. Однако энергоэффективность солнечных панелей по-прежнему ограничена, и в этой области проводятся постоянные исследования для повышения эффективности. Метод введения примесей (допинга) в полупроводниковые материалы позволяет значительно повысить эффективность солнечных панелей. В данной статье представлена информация о принципе работы солнечных панелей и важности введения примесей.

Ключевые слова: солнечные панели, полупроводники, примеси, фотоэффект, кремний, германий, эффективность, потери.

Abstract: Solar energy occupies an important place in the modern world as a sustainable and environmentally friendly energy source. For sunny countries, solar panels have become one of the main directions in energy supply. However, the energy efficiency of solar panels is still limited, and constant research is being conducted to improve efficiency in this area. The method of doping semiconductor materials allows for a significant increase in the efficiency of solar panels. This

ISSN 3030-3907

article provides information on the operating principle of solar panels and the importance of impurity introduction.

Keywords: solar panels, semiconductors, impurities, photoelectric effect, silicon, germanium, efficiency, losses.

Kirish.

Quyosh energiyasi zamonaviy dunyoda barqaror va ekologik toza energiya manbai sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda [1]. Quyosh panellari fotoeffekt asosida ishlaydi, bunda yarimo‘tkazgich materiallar quyosh nurini elektr energiyasiga aylantiradi. Quyosh panellari asosan kremniy (Si) yoki boshqa yarimo‘tkazgich materiallardan tayyorlanadi. Quyosh nuri panelga tushganda, fotonlar elektronlarni harakatga keltirib, elektr maydonini hosil qiladi. Bu jarayonning samaradorligi materialning xususiyatlari, uning tuzilishi va yorug‘likni yutish qobiliyatiga bog‘liq [2]. Fotonlar yarimo‘tkazgich ichidagi elektronlarni erkin holatga keltiradi, bu esa elektr oqimini hosil qiladi. Samaradorlikning pastligi energiya yo‘qotilishi (issiqlik yoki rekombinatsiya shaklida) va materialning optik xususiyatlari bilan bog‘liq [3].

Quyosh panellari (1-rasm) ning samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq: materialning yorug‘likni yutish qobiliyatiga (quyosh spektrining faqat ma’lum qismi energiyaga aylantiriladi), elektronlarning rekombinatsiyasi (erkin elektronlar qayta bog‘lanib, energiya yo‘qotilishiga olib keladi), issiqlik yo‘qotilishi (yuqori haroratlarda samaradorlik pasayadi) [4].



1-rasm. Quyosh panelining tuzilishi.

Quyosh panellarida ishlatiladigan asosiy materiallar orasida kremniy, galliy arsenid (GaAs), kadmiy tellurid (CdTe) va perovskitlar mavjud. Har bir material o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega [5]:

ISSN 3030-3907

Monokristalli kremniy - yuqori samaradorlik (20-22%) va uzoq vaqt xizmat qiladi, ammo ishlab chiqarish narxi yuqori.

Polikristalli kremniy - samaradorligi 15-18% atrofida, lekin ishlab chiqarish arzonroq.

Amorf kremniy - samaradorligi 6-8% bo‘lib, eng arzon hisoblanadi.

Galliy arsenid (GaAs) - 30% gacha samaradorlikka ega, lekin qimmat va asosan kosmik texnologiyalarda qo‘llaniladi.

Perovskitlar - so‘nggi yillarda 25% dan yuqori samaradorlikka erishdi, ammo barqarorlik muammolari mavjud [6].

Yarimo‘tkazgichlarga kirishmalar kiritish – bu materialning elektr va optik xususiyatlarini o‘zgartirish uchun maxsus kimyoviy elementlar qo‘shish jarayonidir. Kirishmalar ikki turga bo‘linadi: n-turi kirishmalar: Fosfor (P) yoki arsen (As) kabi elementlar elektronlar sonini ko‘paytiradi. p-turi kirishmalar: Bor (B) yoki galliy (Ga) “kovaklar” (musbat zaryad tashuvchilar) hosil qiladi.

Kirishmalar p-n ulanishini hosil qilib, elektr maydonini yaratadi, bu esa fotoeffektning asosini tashkil etadi. Kirishmalar miqdorini va turini to‘g‘ri tanlash orqali quyosh xujayrasining samaradorligini oshirish mumkin [7].

NATIJALAR VA TAHLIL

Kirishmalar kiritishning bir qancha afzalliklari mavjud. Kirishmalar elektron yoki kovaklarning zichligini oshiradi, bu oqim hosil qilishni kuchaytiradi. Kirishmalar materialning yorug‘likni yutish spektrini kengaytiradi. To‘g‘ri kirishmalar rekombinatsiya va issiqlik yo‘qotilishini minimallashtiradi.

Kirishmalar kiritish texnologiyalari

1.Termik diffuziya: Yuqori haroratda kirishma moddalari material yuzasiga singdiriladi.

2.Ion implantatsiyasi: Kirishma ionlari yuqori energiya bilan materialga kiritiladi.

3.Kimyoviy bug‘ cho‘kmalari (CVD): Kirishmalar maxsus gazlar orqali materialga qo‘shiladi.

Kremniy quyosh panellarida fosfor va bor eng ko‘p ishlatiladigan kirishmalar hisoblanadi. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, azot (N) yoki alyuminiy (Al) kabi qo‘shimcha kirishmalar samaradorlikni 1-2% ga oshirishi mumkin. Masalan:

- Fosfor dopingi: n-turi qatlamning o‘tkazuvchanligini oshiradi.
- Bor dopingi: p-turi qatlam hosil qilib, p-n ulanishini mustahkamlaydi.
- Kombinatsiyalangan doping: Bir nechta kirishmalarni sinxron qo‘llash orqali samaradorlikni optimallashtirish mumkin.

Yuqori samaradorlikka ega kremniy atomlari, masalan, PERC (Passivated Emitter and Rear Cell) texnologiyasi, kirishmalar kiritish orqali yaxshilanadi. Bu

ISSN 3030-3907

texnologiyada maxsus qatlamlar va kirishmalar yordamida elektronlarning rekombinatsiyasi kamaytiriladi.

Galliy arsenid va perovskitlarda kirishmalar:

- GaAs quyosh xujayralari yuqori samaradorlikka ega (30% gacha), ammo qimmat. Selen (Se) yoki sink (Zn) kabi kirishmalar qo‘shish orqali optik xususiyatlar yaxshilanadi. GaAs asosan kosmik texnologiyalarda qo‘llanilsa-da, arzonlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar davom etmoqda.
- Perovskit materiallari so‘nggi yillarda katta e’tibor qozonmoqda, chunki ularning samaradorligi 25% dan oshdi. Metilammoniy, seziy yoki qo‘rg‘oshin kabi kirishmalar qo‘shish orqali perovskitlarning barqarorligi va yorug‘likni yutish qobiliyati oshirilmoqda. Shu bilan birga, perovskitlarning namlik va issiqlikka chidamliligi muammo bo‘lib qolmoqda.

Quyosh panellari an’anaviy yoqilg‘ilarga muqobil sifatida atrof-muhitga zarar yetkazmaydi. Kirishmalar kiritish orqali samaradorlikni oshirish quyosh panellarining iqtisodiy samarasini yanada oshiradi, chunki yuqori samaradorlik energiya ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.

Kirishmalar kiritish jarayoni bir qator muammolarni keltirib chiqaradi:

1.Materiallarning barqarorligi: Perovskit xujayralarining uzoq muddatli barqarorligi muammo bo‘lib qolmoqda.

2.Ishlab chiqarish xarajatlari: GaAs kabi materiallar qimmat bo‘lib, keng qo‘llanilishini cheklaydi.

3.Ekologik ta’sir: Ba’zi kirishmalar uchun ishlatiladigan kimyoviy moddalar atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin.

Quyosh panellarining kelajagi yangi materiallar va texnologiyalarga bog‘liq. O‘z-o‘zini tozalaydigan panellar, shaffof quyosh elementlari va energiya saqlash tizimlari bilan integratsiya kabi innovatsiyalar sohani rivojlantiradi. Kirishmalar kiritish bo‘yicha tadqiqotlar perovskit va arzon materiallarning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Innovatsion yondashuvlar

O‘z-o‘zini tozalaydigan panellar: Hidrofobik qoplamalar yordamida chang va ifloslanishning ta’siri kamaytiriladi.

Shaffof panellar: Bino oynalari va transport vositalarida ishlatilishi mumkin. Energiya saqlash: Yuqori samaradorlikka ega panellar akkumulyatorlar bilan birgalikda kechasi energiya ta’minotini ta’minlaydi.

Quyosh panellarining energiya samaradorligi hozirda 15-22% atrofida bo‘lib, uni oshirish uchun doimiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Kremniy asosidagi quyosh panellari eng keng tarqalgan bo‘lib, ularga boshqa moddalar (kirishmalar) kiritish orqali samaradorlikni sezilarli darajada oshirish mumkin. Ushbu maqolada

ISSN 3030-3907

kremniyga kirishmalar kiritishning texnologik asoslari, samaradorlikka ta’siri, O‘zbekiston uchun imkoniyatlar va kelajakdagi istiqbollar muhokama qilinadi. Fotonlar kremniy ichidagi elektronlarni erkin holatga keltiradi, bu esa elektr oqimini hosil qiladi. Samaradorlikning cheklanishi quyidagi omillarga bog‘liq:
Yorug‘likni yutish: Kremniy quyosh spektrining faqat ma’lum qismini yuta oladi.
Rekombinatsiya: Erkin elektronlar qayta bog‘lanib, energiya yo‘qotilishiga olib keladi.
Issiqlik yo‘qotilishi: Yuqori haroratlarda samaradorlik pasayadi.

Kremniy quyosh panellarida eng keng tarqalgan material hisoblanadi, chunki u barqaror va uzoq vaqt xizmat qiladi (25-30 yil). Yer yuzasidagi eng ko‘p tarqalgan elementlardan biri hisoblanadi. Nisbatan arzon ishlab chiqarish imkoniyatiga ega.
Kremniy quyosh panellari uchta asosiy turga bo‘linadi:

Monokristalli kremniy*:* Yuqori samaradorlikka (20-22%) ega, ammo ishlab chiqarish narxi yuqori. U bir kristall tuzilishga ega bo‘lib, yorug‘likni yutishda samarali.

Polikristalli kremniy*:* Samaradorligi 15-18% atrofida, lekin arzonroq. Ko‘p kristalli tuzilishi tufayli ishlab chiqarish osonroq.

Amorf kremniy*:* Samaradorligi 6-8% bo‘lib, eng arzon, lekin samaradorligi past va yupqa qatlamli panellarda qo‘llaniladi.

Har bir tur o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega bo‘lib, kirishmalar kiritish orqali ularning samaradorligini oshirish mumkin. Yarimo‘tkazgichlarga kirishmalar kiritish (doping) – bu kremniyning elektr va optik xususiyatlarini o‘zgartirish uchun maxsus kimyoviy elementlar qo‘shish jarayonidir. Kirishmalar elektron yoki kovaklarning zichligini oshiradi, bu oqim hosil qilishni kuchaytiradi. Kirishmalar kremniyning yorug‘likni yutish spektrini kengaytiradi. To‘g‘ri kirishmalar rekombinatsiya va issiqlik yo‘qotilishini minimallashtiradi.

Termik diffuziya: Kirishma moddalari yuqori haroratda kremniy yuzasiga singdiriladi.

Ion implantatsiyasi: Kirishma ionlari yuqori energiya bilan kremniyga kiritiladi.

Kimyoviy bug‘ cho‘kmalari (CVD): Kirishmalar maxsus gazlar orqali kremniyga qo‘shiladi.

Kremniy quyosh xujayralarida eng ko‘p ishlatiladigan kirishmalar fosfor va bordir. Biroq, boshqa moddalar ham samaradorlikni oshirishda foydalanilmoqda. Fosfor n-turi kirishma sifatida ishlatiladi, chunki u kremniyga qo‘shilganda qo‘shimcha elektronlarni ta’minlaydi. Bu n-turi qatlamning o‘tkazuvchanligini oshiradi va p-n ulanishini mustahkamlaydi. Fosforning yuqori konsentratsiyali

ISSN 3030-3907

dopingi samaradorlikni 1-2% ga oshirishi mumkin. Bor p-turi kirishma sifatida ishlatilib, kovaklar hosil qiladi. Bu p-turi qatlamni shakllantirishda muhimdir. Bor dopingi p-n ulanishining elektr maydonini kuchaytiradi va elektronlarning harakatini yaxshilaydi. Azot kiritish orqali kremniyning optik xususiyatlari yaxshilanadi, bu esa kengroq spektrdagi yorug‘likni yutish imkonini beradi. Alyuminiy p-turi kirishma sifatida ishlatilishi mumkin va issiqlikka chidamlilikni oshiradi. Bor o‘rniga galliy qo‘llanilganda, uzoq muddatli barqarorlik va samaradorlikni oshirish mumkin.

Bir nechta kirishmalarni sinxron qo‘llash (masalan, fosfor va azot) samaradorlikni yanada oshiradi. Bu usul kremniyning ta’qiqlangan zona kengligini sozlash va rekombinatsiyani kamaytirishga yordam beradi. Kremniy asosidagi quyosh panellarining samaradorligini oshirishda bir qator zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilmoqda:

PERC (Passivated Emitter and Rear Cell) texnologiyasida maxsus qatlamlar va kirishmalar yordamida elektronlarning rekombinatsiyasi kamaytiriladi, samaradorlik 22% dan oshadi.

HJT (Heterojunction Technology) da kremniy va amorf kremniy qatlamlarini birlashtirib, kirishmalar kiritish orqali samaradorlik 24% gacha yetkaziladi.

TOPCon (Tunnel Oxide Passivated Contact) texnologiyasida Kirishmalar va yupqa oksid qatlami yordamida samaradorlik 25% gacha oshiriladi.

Bu texnologiyalarda kirishmalar kiritish jarayoni muhim rol o‘ynaydi, chunki ular elektronlarning harakatini optimallashtiradi va energiya yo‘qotilishini kamaytiradi.

Kremniyga kirishmalar kiritish jarayoni bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Yuqori sifatli doping jarayonlari qimmatga tushadi. Kirishmalar kiritilgan kremniyning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash muhim. Ba’zi kirishmalar (masalan, fosfor) ishlab chiqarishda kimyoviy chiqindilar hosil qilishi mumkin.

Xulosa

Kremniy quyosh panellarida eng keng tarqalgan material bo‘lsa-da, germaniy (Ge) o‘zining noyob xususiyatlari tufayli yuqori samaradorlikka ega quyosh panellarida qo‘llanilmoqda. Germaniyga boshqa moddalar (kirishmalar) kiritish orqali uning samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Germaniy quyosh spektrining infraqizil qismini yaxshi yutadi, bu uni ko‘p qatlamli xujayralarda foydali qiladi. Erkin elektronlar qayta bog‘lanib, energiya yo‘qotilishiga olib keladi. Yuqori haroratlarda samaradorlik pasayadi.

ISSN 3030-3907

Germaniy quyosh panellarida ba’zi afzalliklarga ega. Germaniyning ta’qiqlangan zona kengligi (0,67 eV) infraqizil nurlarni yutishga imkon beradi. Elektronlarning tez harakatlanishi oqim hosil qilishni kuchaytiradi. Germaniy galliy arsenid (GaAs) bilan birgalikda yuqori samaradorlikka ega panellar yaratadi. Germaniy qo‘llanilishida biroz noqulayliklar ham mavjud. Germaniy kremniyga nisbatan qimmatroq. Germaniy yer yuzasidagi nodir elementlardan biridir. Uzoq muddatli foydalanishda oksidlanish xavfi mavjud.

Germaniy asosan ko‘p qatlamli (tandem) quyosh elementlarida ishlatiladi, chunki u pastroq ta’qiqlangan zona kengligiga ega bo‘lib, quyosh spektrining infraqizil qismini yutishda samarali. U odatda galliy arsenid yoki kremniy bilan kombinatsiyada qo‘llaniladi. Germaniy asosidagi panellar kosmik texnologiyalarda (masalan, sun’iy yo‘ldoshlar) va yuqori samaradorlik talab qilinadigan loyihalarda keng tarqalgan. Ko‘p qatlamli panellar turli materiallar (masalan, GaAs, Ge, InGaP) qatlamlaridan iborat bo‘lib, har bir qatlam quyosh spektrining muayyan qismini yutadi. Germaniy bu tizimda pastki qatlam sifatida ishlatiladi va infraqizil nurlarni yutadi. Bu panellar 40% gacha samaradorlikka erishishi mumkin.

Germaniyga kirishmalar kiritish (doping) – bu uning elektr va optik xususiyatlarini yaxshilash uchun maxsus kimyoviy elementlar qo‘shish jarayonidir. Kirishmalar ikki turga bo‘linadi: *n-turi kirishmalar* - *f*osfor (P), arsen (As) yoki antimon (Sb) elektronlar sonini ko‘paytiradi. *p-turi kirishmalar g*alliy (Ga), indiy (In) yoki bor (B) “kovaklar” (musbat zaryad tashuvchilar) hosil qiladi. Kirishmalar p-n ulanishini hosil qilib, elektr maydonini yaratadi, bu fotovoltaik effektning asosini tashkil etadi. To‘g‘ri kirishmalar germaniyning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Kirishmalar elektron yoki kovaklarning zichligini oshiradi, bu oqim hosil qilishni kuchaytiradi. Kirishmalar germaniyning yorug‘likni yutish spektrini kengaytiradi. To‘g‘ri kirishmalar rekombinatsiya va issiqlik yo‘qotilishini minimallashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akramov H va b. Yarimo‘tkazgichlarda fotoelektrik hodisalar. T. 1994 yil.
2. Sobirova T. Quyosh panellaridagi yarimo‘tkazgichli materiallarning ahamiyati //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 75-84.
3. Karimov I.N., Ermatov Sh , Nosirov M.Z., Abduazimov B.A ―Lazer fizikasi va texnikasi‖- Andijon, 2016, 57c
4. Sobirova, T. (2023, April). Advantages of nanotechnology and its role in the industry. In International Conference On Higher Education Teaching (Vol. 1, No. 1, pp. 71-75)

ISSN 3030-3907

5. Sobirova, T. A. (2022). Yarimo‘tkazgichli lazerlar. Экономика и социум, (6-1 (97)), 1181-1187.
6. Sobirova, T. A. (2024). IMPORTANCE OF SEMICONDUCTOR MICROCIRCUITS IN MICROELECTRONICS AND INDUSTRY. Scientific and Technical Journal Namangan Institute of Engineering and Technology. Volume 8 (477-482)
7. Sobirova Tursunoy Abdipatto qizi. (2024). DEFECTS IN CRYSTALS AND THEIR PROPERTIES. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *11*(05), 246–250.

ISSN 3030-3907

УДК 629.62-50.621.311.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ОСНОВЫ ТЕОРИИ АДАПТИВНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ ДЛЯ АВТОМАТИЗАЦИИ МНОГОСВЯЗНЫХ ОБЪЕКТОВ.

Умид Садирдинович Холматов

доцент кафедры «Транспорная логистика», Андижанский государственный технический институт, г. Андижан, Республика Узбекистан

E-mail: umid.xolmatov.76@mail.ru,

https://orcid.org/0000-0003-2295-502X

Аннотация. В статье предложены решения задачи от перехода автоматизации отдельных процессов к автоматизации производственных комплексов и показаны возможности применения теории адаптивной идентификации многосвязных объектов на примере очистных сооружений.

Ключевые слова: Дискретные системы, водоотводящие и очистные сооружения, управление многосвязными объектами, адаптивная идентификация, линейные неоднородные дифференциальные уравнения, матричные коэффициенты, составные векторы, структурная схема.

Abstract. In article, solutions of a task from transition of automation of separate processes to automation are proposedindustrial complexes possibilities of application of the theory of adaptive identification of multicoherent objects are also shown on example of treatment facilities.

Keywords: The discrete systems, which are water taking away and treatment facilities, management of multicoherent objects, adaptive identification, linear non-uniform differential equations, matrix coefficients, compound vectors, structural scheme.

Annotatsiya. Maqolada alohida jarayonlarni avtomatlashtirishdan sanoat komplekslarini avtomatlashtirishga o‘tish muammosini hal qilish taklif etiladi va oqava suvlarni tozalash inshootlari misolida ko‘p bog‘langan ob'ektlarni moslashuvchan identifikatsiyalash nazariyasini qo‘llash imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Diskret tizimlar, drenaj va tozalash inshootlari, ko‘paytmali bog‘langan ob'ektlarni boshqarish, moslashtirilgan identifikatsiya, chiziqli bir jinsli bo‘lmagan differentsial tenglamalar, matritsa koeffitsientlari, birikma vektorlar, blok-sxema.

Введение

Многочисленные задачи управления производственными процессами и сложными установками к которым следует отнести химическую и биологическую очистку сточных вод, являются многосвязными объектами,

ISSN 3030-3907

требуют перехода от автоматизации отдельных процессов к автоматизации производственных комплексов.

Это приводит к необходимости учета взаимосвязанности входных и выходных координат отдельных процессов, а, следовательно, и структурных связей между ними. Отсутствие достаточно полной априорной информации об объекте, законах распределения случайных параметров и случайных воздействий вызывает необходимость применение теории адаптивной идентификации.

В дальнейшем под адаптивной идентификацией многосвязных объектов будем понимать определение параметров и структуры объектов в условиях начальной неопределенности, на основании результатов наблюдения за изменением входных и выходных величин, в процессе нормальной эксплуатации. С этой точки зрения особый интересе представляют электроэнергетические системы водоотводящих и очистных сооружений, в которых осуществляется одновременное регулирование частоты и напряжения, потоков активных и реактивных мощностей, производительности турбокомпрессоров насосных станций, и по технологическому режиму относятся, как многосвязные объекты с сепаратными каналами управления, режимами работы [1, 2, 4].

Методы

Известно, что параметры объекта управления, например, водоотводящих и очистных сооружений изменяются в широких пределах [4, 5, 7]. Если считать, что на изменение параметров объекта влияет только один фактор (например, концентрация сточной воды), пренебрегая при этом режимами работы турбокомпрессоров и насосных агрегатов, то использовать полученные параметры объекта управления не возможно без больших погрешностей. Если же решать задачу идентификации очистных сооружений как многосвязного объекта с учетом всех указанных величин в процессе эксплуатации, то получаемые при этом параметры объекта будут определены значительно точнее [3, 4, 6, 9].

Задача адаптивной идентификации возникает связи с тем, что в общем случае внутреннее и внешнее воздействие, которое действует на объект, имеет случайный характер. Для водоочистных сооружений как объектов эта случайность обусловлена случайным характером возмущающих моментов и других факторов, вызванных неравномерностью распределения мощностей двигателей насосов, нестабильностью давления в турбокомпрессоры от цикла к циклу, концентрации активного ила дозы активного хлора и т. п. [4, 8, 10, 11]. Для очистных сооружений такими воздействиями являются:

ISSN 3030-3907

заполнения отстойников и аэротенков, выхода из строя одного из симметрично расположенных двигателей и насосов и т.д.

Несложно определить законы распределения каждого из указанных факторов в отдельности [4, 12, 13], но определить результирующий закон распределения всей совокупности факторов, а соответственно и зависящих от них идентифицируемых параметров объекта почти невозможно. В связи с этим задача идентификации многосвязных объектов сводится к задаче адаптивной идентификации.

Результаты и обсуждение

В настоящее время не имеется полной теории адаптивной идентификации многосвязных объектов. В данной статье изложены некоторые вопросы теории адаптивной идентификации многосвязных объектов, содержащих прямые и обратные перекрестные связи.

Опишем процессы в многосвязных объектах системы линейных неоднородных дифференциальных уравнений *l*-го порядка с *r* неизвестными переменными $x_1, x_2, \ldots, x_r$ аргумента t с постоянными коэффициентами

$$\sum_{j=1}^{r} a_{ij}(D)x_j = \sum_{j=1}^{r} b_{ij}(D)v_j \qquad (1)$$

где совокупность координат $\bar{x} = \{x_1, x_2, \ldots, x_r\}$; $\bar{v} = \{v_1, v_2, \ldots, v_r\}$ - векторы – столбцы состояния объекта и управления соответственно; i- номер сепаратного канала; D=d/dt – оператор дифференцирования; $a_{ij}(D), b_{ij}(D)$- полиномы от D, которые имеют вид

$$a_{ij}(D) = a_{ij}^{(l)}D^l + a_{ij}^{(l-1)}D^{l-1} + \ldots + a_{ij}^{(1)}D + a_{ij}^{(0)}; \qquad (2)$$

$$b_{ij}(D) = b_{ij}^{(l_1)}D^{j_1} + b_{ij}^{(l_1-1)}D^{l_1-1} + \ldots + b_{ij}^{(1)}D + b_{ij}^{(0)};$$

Здесь *i, j*=1,2, . . .,*r*; l, l_1- порядок полинома коэффициентов a и b соответственно; *r*- число сепаратных каналов управляемого объекта. Предполагается, что число прямых перекрестных связей равно числу обратных; порядок дифференциальных уравнений обратных перекрестных связей равен порядку дифференциальных уравнений прямых перекрестных связей. Эти предположения не сужают общности задачи, так как она при наличии любых других вариантов и сочетаний перекрестных связей, а также порядка дифференциальных уравнений сводится к частным случаям. Введем многочисленные матрицы операторных коэффициентов [4, 14, 16, 17]:

$$\mathrm{A(D)} = \left\| a_{ij}(D) \right\|;$$

$$\mathrm{B(D)} = \left\| b_{ij}(D) \right\|; \qquad (3)$$

или в развернутом виде

ISSN 3030-3907

$$A(D) = \left\| \begin{matrix} a_{11}(D)a_{12}(D)\dots a_{1r}(D) \\ a_{21}(D)a_{22}(D)\dots a_{2r}(D) \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ a_{r1}(D)a_{r2}(D)\dots a_{rr}(D) \end{matrix} \right\|;$$

(4)

$$B(D) = \left\| \begin{matrix} b_{11}(D)b_{12}(D)\dots b_{1r}(D) \\ b_{21}(D)b_{22}(D)\dots b_{2r}(D) \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ b_{r1}(D)b_{r2}(D)\dots b_{rr}(D) \end{matrix} \right\|;$$

Полагая

$$A_k = \left\| a_{ij}^{(k)} \right\| (i, j = 1, 2, \dots, r;$$

$$k=0, \quad 1, 2, \dots, l; \qquad (5)$$

$$B_q = \left\| b_{ij}^{(q)} \right\| q = 0, 1, 2, \dots l_1),$$

можно представить многочисленные матрицы A (D) в B (D) в виде многочленов с матричными коэффициентами

$$A(D)=A_lD^l+A_{l-1}D^{l-1}+\dots+A_1D+A_0;$$

$$B(D)=B_{l1}D^l{}_1+B_{l-1}D^{l1-1}+\dots+B_1D+B_0; \qquad (6)$$

Тогда в матричной форме система дифференциальных уравнений (1) принимает вид

$$\sum_{k=0}^{l} A_k D^k x = \sum_{q=1}^{l_1} B_q D^q \bar{u} \qquad (7)$$

В развернутой форме для любого сепаратного канала можно записать

$$\sum_{k=0}^{l} \sum_{j=1}^{r} a_{ij}^{(k)} D^k x_j = \sum_{q=0}^{l_1} \sum_{j=1}^{r} b_{ij}^{(q)} D^q u_j \qquad (8)$$

Перепишем уравнение (8) в разностном виде (в рекуррентной форме):

$$x_i[n] = \sum_{k=0}^{l} \sum_{j=1}^{r} c_{ij}^{(k)} x_i[n-k] + \sum_{q=1}^{l_1} \sum_{j=1}^{r} d_{ij}^{(q)} u[n-q] \qquad (9)$$

Матричные коэффициенты уравнений связаны между собой соотношениями [4, 17].

$$c_{ij}^{(l-k)} = -\sum_{v=0}^{k} a_{ij}^{(l-v)} (-1)^{k-v} c_{l-v}^{k-v};$$

$$a_{ij}^{(l_1-q)} = -\sum_{v=0}^{q} a_{ij}^{(l_1-v)} (-1)^{q-v} c_{l_1-v}^{q-v};$$

где

$$c_{l-v}^{k-v} = \frac{(1-v)!}{(k-v)!\,(l-k)!};$$

$$c_{l_1-v}^{k-v} = \frac{(1_1-v)!}{(q-v)!\,(l_1-k)!};$$

Для управляемого объекта при наличии только прямых перекрестных связей уравнение (9) имеет вид

$$x_i[n] = \sum_{m=1}^{l} c_{ii}^{(m)} x_i[n-m] + \sum_{j=1}^{r} \sum_{m=1}^{S} d_{ij}^{(m)} v_j[n-m], \qquad (9.a)$$

ISSN 3030-3907

а при наличии только обратных –

$$x_i[n] = \sum_{j=1}^{r} \sum_{m=1}^{S} c_{ij}^{(m)} x_i[n-m] + \sum_{m=1}^{l} d_{ij}^{(m)} v_i[n-m], \quad (9.б)$$

В отдельных случаях некоторые из коэффициентов c_{ii}^{m} и d_{ij}^{m} могут быть равны, что соответствует отсутствию каких-либо связей.

